

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Z.M BOBUR NOMLI ANDIJON DAVLAT
UNIVERSITETI

O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
TIL VA ADABIYOT O'QITISH METODIKASI
KAFEDRASI

4-BOSQICH «G» GURUH TALABASI

VOHIDOVA (RAHIMOVA) SAODATNING

*«So'z turkumlarini sintaksis
asosida o'rganish»*

mavzusida yozgan

BITIRUV

MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

dotsent L. Jalolova

ANDIJON - 2013

Mundarija

Kirish. Ishning umumiy tavsifi.....

I bob.

- 1.1. Ona tili o'qitish metodikasining asosiy vazifalari va tamoyillari...
- 1.2. Morfologiya haqida umumiy ma'lumot.....

II bob.

- 2.1. O'quvchilarni til hodisalarini kuzatish usullariga o'rgatish.....
- 2.2. So'z turkumlarini sintaksis asosida o'rgatish:
 - a) mustaqil so'z turkumlarini sintaksis asosida o'rgatish;.....
 - b) yordamchi so'z turkumlarini sintaksis asosida o'rgatish;.....
 - d) so'z turkumlariga doir bilimlarni testlar, gammatik topishmoqlar
va programmalashtirilgan topshiriqlar asosida mustahkamlash

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

“HIMOYAGA TAVSIYA ETAMAN”

BMI RAHBARI:

dots. L. JALOLOVA

“ ____ ” _____ 2013

“HIMOYAGA QO’YISHGA RUXSAT BERAMAN”

KAFEDRA MUDIRI:

p.f.d. SH. YUSUPOVA

“ ____ ” _____ 2013

“HIMOYAGA TAVSIYA ETAMAN”

RASMIY TAQRIZCHI:

kat.o’q. D. Qosimova

“ _____ ” _____ 2013

**“DAVLAT ATTESTATSIYA HAY’ATIGA
HIMOYA UCHUN TAQDIM ETAMAN”**

FAKULTET DEKANI:

dots.Z. QODIROV

“ ____ ” _____ 2013

Kirish. Ishning umumiy tavsifi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kun ona tili ta'limining asosiy vazifalaridan biri mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga, intellektual bilim hamda boylikka ega, yozma hamda og'zaki nutqi talab darajasida bo'lgan, ona tilimizning boy imkoniyatlaridan oqilona foydalana oladigan yoshlarni tarbiyalashdir. Bu vazifani amalga oshirishda, asosan, ona tili darslarida o'qituvchining kasbiy mahorati, pedagogik layoqati, mutaxassis sifatida o'z fanini yaxshi bilishi, yangi innovatsion texnologiyalardan to'g'ri, oqilona va unumli foydalana olish qobiliyati katta ahamiyatga ega. Ona tili darslarining mutaxassislar tomonidan bugungi kun davr talabi asosida olib borilishi, ta'lim mazmuni va sifatiga doimiy ravishda e'tibor qaratilishi o'quvchilar bilim darajasining ortishida asosiy omil vazifasini o'taydi. Xususan, ona tili ta'limida morfologiya samarali o'qitish o'quvchilarning aqliy faoliyati, nutqiy kamolotini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Ona tili ta'limida morfologiyani o'qitish, ayniqsa, morfologiyani sintaksis asosida o'rgatishga doir manbalar, ma'lumotlar ozchilikni tashkil etadi. Mazkur mavzu monografik aspektda hali to'la o'rganilmagan. Bitiruv ishlariga ham mavzu sifatida olinmagan. Morfologiyani sintaksis asosida o'qitish masalasini chuqur o'rganish, Shu asosda o'quvchilarning morfologiya sathiga doir bilimlarining oshishini ta'minlash ona tili ta'limining muhim vazifalaridan biridir. Bizning ishimiz shu maqsadni ko'zda tutadi. Bu esa tanlangan mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi. Ona tili ta'limida morfologiya bo'limining tutgan o'rni, maqsad va vazifalarini; morfologiya sathini sintaksis asosida o'qitish hamda uni mazmun jihatdan takomillashtirish, darslarga tatbiq etish masalalarini yoritish ishimizning maqsadini tashkil etadi.

Tadqiqotning vazifasi. Ishning maqsadini amalga oshirishda quyidagi vazifalar qo'yildi:

- ona tili ta’limi va unda morfologiyani o’qitishning asosiy maqsad va vazifalarini yoritish;
- morfologiya sathini sintaksis asosida o’qitish masalasini ochib berish;
- morfologiya sathini sintaksis asosida o’qitishni mazmun jihatdan takomillashtirish yollarini ko’rsatish;
- morfologiyani aqliy faoliyat usullari asosida o’rganish masalasini izohlash;

Tadqiqot obekti: ta’lim bosqichlaridagi ona tili ta’limi jarayoni.
Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ish materiallaridan mavzuga doir kurs ishlari , referatlar, maqolalar yozishda, pedagogik amaliyotda, ona tili darslarini olib borish jarayonida foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, ikkita bob va xulosadan iborat.

I BOB

1.1. Ona tili o'qitish metodikasining asosiy vazifalari va tamoyillari

Ona tili metodikasi - pedagogik va amaliy fan. Chunki u nazariyaga asoslanib o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, o'stirishning amaliy vazifalarini bajaradi.

Ona tili o'qitish metodikasining predmeti **ta'lim berish jarayonida ona tilini egallash, ya'ni til qurilishi qonuniyatlari, til sathlari, ularning o'ziga xos xususiyatlarini bilib olish, og'zaki va yozma nutqni shakllantirish jarayoni** hisoblanadi. Ona tilidan ko'nikma va malakalarni shakllantirish, til haqidagi fanning ilmiy tushunchalar sistemasini o'zlashtirish qonuniytlarini o'rganadi, til o'rganishning eng qulay metod va usullarini izlaydi .

Ona tili o'qitish metodikasi amaliy fan sifatida uch vazifani bajaradi:

1. Nimani o'qitish kerak? savoliga javob beradi, ya'ni dasturlar ishlab chiqadi, darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratib beradi. Ularning samaradorligi va muvofiqligini doimiy tekshirib boradi.

2. Qanday o'qitish kerak? savoliga ta'lim berishning metodlari, metodik usullar, mashqlar sistemasi, qo'llanmani tadbqiq etish tavsiyanomalarini, yozma ish, amaliy ishlar sistemasini, dars, uning turlarini ishlab javob beradi.

3. Nega aynan mana shunday o'qitish kerak? Bunda ilmiy nuqtayi nazardan eng foydali metodlarni o'rganish, tanlash, asoslash, tavsiyalarni eksperimental tekshirish vazifalarini bajaradi.

Ona tili o'qitish metodikasi ta'limning turli bosqichlarida **o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlaydi, o'qishning muvaffaqiyati va kamchiliklarini belgilaydi, sababini izlaydi, uni bartaraf etish usullarini topadi. Nutqiy va orfografik tipik xatolarni tekshiradi, uning oldini olish chora -tadbirlarini belgilaydi¹.**

¹. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1992, 59-bet.

Ona tili ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'rgatiladi.

Ona tili o'qitish metodikasi fani to'rt bo'limni o'z ichiga oladi:

Savod o'rgatish metodikasi, ya'ni elementar o'qish va yozishga o'rgatish. Bolalarga savod o'rgatish pedagogikadagina emas, balki ijtimoiy hayotda ham juda jiddiy qo'yilgan masalalardandir. Chunki xalqning savodxonligi ozodlik uchun, siyosiy onglik uchun, madaniyat uchun kurash quolidir. Mustaqil O'zbekiston Respublikamizda har bir kishining savodxon bo'lishiga alohida e'tibor berilmoqda.

O'qish metodikasi. Boshlanqich sinflarda o'qish predmetining vazifasi birinchi navbatda bolalarni tez (me'yorida), to'g'ri, ongli va ifodali o'qish malakalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Grammatika va imlo metodikasi. Bu bo'lim elementar to'g'ri yozuvga va husnixatga o'rgatish ya'ni, grammatik tushunchalarni, boshlang'ich imlo malakasini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning bog'lanishli nutq o'stirish metodikasi. Bu bo'lim alohida o'rin tutadi. O'quvchilar tilni, nutqni o'quv predmeti sifatida anglaydilar, ular xohlagan va qiziqarli narsalarnigina emas, balki zaruriy narsa va hodisalar haqida o'ylab, rejali nutq tuzish zarurligini ham tushuna boshlaydilar. Ular o'zining grafik shakli bilangina emas, balki leksikasi, sintaktik va morfologik shakli bilan ham nutqdan farq qiladigan yozma nutqni egallaydilar. **Metodika o'quvchilarning nutqini boyitishni, sintaktik va bog'lanishli nutq o'stirishni ham ta'minlashi kerak.**

Shuni aytib o'tish kerakki, bog'lanishli nutq maktablarda alohida bo'lim sifatida o'rganilmaydi. U til fanining boshqa bo'limlari bilan bog'langan holda o'rganiladi.

Ona tili o'qitish metodikasining **metodologik asosi borliqni bilish nazariyasidir. Ona tili o'qitish metodikasining bosh vazifasi**

o'quvchilarning o'zbek tili lug'at boyligini to'liq o'zlashtirib olishlarini ta'minlashdir.

Ma'lumki, jamiyatda til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilsiz jamiyatning yashashi mumkin emas, tilning aloqa vositasi sifatidagi roli uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari va formalari yordamidagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshiriladi. Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi. Fikr nutqda shakllanadi va reallashadi. Tilni egallash va nutq o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham o'sadi. Maktabning vazifasi tilni kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi.

Metodik fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning metod va usullarini ishlab chiqadi.

Bilish nazariyasiga ko'ra analitik-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan umumiy xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida og'zaki va yozma tarzidagi nutqiy aloqaga, to'g'ri yozuv va to'g'ri talaffuzga o'tiladi. O'quvchilar jonli nutqiy aloqaga to'g'ri talaffuz va to'g'ri yozuvni elementar nazariy ma'lumotlar asosida amaliy egallash orqali kirishadilar. Ular til materiallarini kuzatish, tahlil qilish orqali elementar nazariy qoidalar chiqaradilar, o'rgangan, o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni amaliyotga ongli ravishda tatbiq etadilar.

Maktabda ona tili o'qitish metodikasining bunday yo'nalishi haqiqatni bilish qonuniyatlariga ham, hozirgi zamon didaktikasi vazifalariga ham mos keladi.

Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilab berildi. Mazkur ta'lim tamoyillari, ya'ni ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi; ta'limning uzluksizligi va izchilligi; umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligi; ta'lim

tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi; davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi ; ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv; bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish; ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish kabilar , boshqa fanlar qatori, ona tili o'qitish metodikasining ham **vazifalarini** belgilab, aniqlashtirib berdi.

Ona tili ta'limi umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirib beradi. O'z vazifalarini belgilab olishda ta'lim sohasidagi davlat hujjatlariga tayanadi. Keyingi yillarda mustaqillik sharofati bilan ta'limni tubdan isloh qilish davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va shu asosda yaratilgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» buning yorqin dalilidir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dan ko'zlangan maqsad ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir. «Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va milliy axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi»¹

Ona tili o'qitish metodikasi ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari va usullarini yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltiradi.

Umumiy o'rta ta'lim bosqichida ta'limning yangicha tizimini va mazmunini shakllantirish uchun ham quyidagilar zarur:

-o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish; - ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash.

Milliy dasturdagi ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish bo'yicha ko'rsatmalar ona tili o'qitish metodikasining ham oldidagi

¹. Roziqov O. v.b. Ona tili didaktikasi. T.: "Yangi asravlodi", 2005, 45-46-bet

turgan dolzarb vazifadir: "Zamonaviy axborot texnologiyalari ,

kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlash rivojlanib boradi. Ta'lim jarayonida ommaviy axborot vositalarining mavqei oshib boradi, televidenie va radioning ta'lim dasturlari intellektuallasuvi ta'minlanadi. Fan va ta'limning nashriyot bazasi rivojlantiriladi, o'quv-uslubiy, ilmiy, qomusiy adabiyotlar va ma'lumotnomalar bilan ta'minlashning barqaror tizimi shakllantiriladi".2

Psixologiya va pedagogika fanlari ham metodikaning metodologik asosi hisoblanadi.

Pedagogik psixologiya kishiga ta'lim va tarbiya berishning psixologik qonuniytlarini o'rganishni o'z predmeti deb biladi. U o'quvchilarda tafakkurning shakllanishini tadqiq qiladi, aqliy faoliyat usullari va ko'nikmalarini o'zlashtirish jarayonini boshqarish masalalarini o'rganadi, o'qitish jarayoning muvaffaqiyatlilikiga , pedagog bilan o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga va o'quvchilar jamoasidagi munosabatlariga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni , o'quvchilardagi individual-psixologik farqlarni, psixik rivojlanishda orqada qoluvchi bolalar bilan olib boriladigan ta'lim – tarbiya ishlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi. Bu bilan pedagogik psixologik metodikaga o'quv materialini tanlashda , ona tilining mazmuni va hajmini o'quv materialini aniqlashda hamda ularni sinflar bo'yicha taqsimlash, muayyan izchillikda joylashtirishda yordam beradi, o'qitishning samarali usul va shakllarini belgilashga, o'quvchilarning analitik-sintetik faoliyatining to'g'ri o'sishiga ko'maklashadi. Metodika psixologiya fani ma'lumotlariga tayanib o'qitishda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib yondashish imkoniyatiga ega bo'ladi.2

Ona tili o'qitish metodikasi psixolingvistika fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Psixolingvistika metodikaga nutq haqida, bayon qilish darajasi haqida, fikr bayon qilish turlarini belgilovchi omillar haqida, «nutqni qabul qilish

signallari» apparati haqida, individual munosabatga va ommaviy aloqaga nutqiy ta'sirning foydasi haqida ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlar metodik masalalarni

hal qilish uchun, ayniqsa, **bog'lanishli nutqni o'stirish metodikasi** uchun juda muhimdir.

Ona tili o'qitish metodikasi didaktika bilan, ya'ni ta'limning umumiy nazariyasi bilan ham bog'lanadi. Metodika didaktika belgilab bergan qonuniyatlar, qoida va prinsiplarga asoslanadi. Didaktikaning prinsiplarga, ya'ni o'rganiladigan materialning ilmiyligi va muvofiqligi, til va materialni o'rgatish va mustahkamlashda ko'rsatmalilik, ongillik, bilim, ko'nikma va malakaning puxtaligi, doimiy takrorlash, o'quvchilar bilish faoliyatining aktivligi, mustaqillik, o'qitishni hayot bilan, bolalarning qiziqishlari bilan bog'lab olib borishga rioya qilish maktabda o'qitiladigan barcha predmetlardan, shu jumladan, ona tilidan ham o'qish jarayonini tashkil qilishda juda zarurdir.

Ona tili metodikasi umumiy pedagogika bilan ham o'zaro bog'lanadi.

Maktab ta'limidagi har bir o'quv predmeti, shu jumladan, ona tili ham, faqat bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qilish bilangina chegaralanmay, bolaning ongini oshirishi va tarbiyalashi ham lozim. Haqiqatan ham, ona tili o'qitish jarayonida bolalarning dunyoqarashi shakllanadi, bilish qobiliyatlari o'sadi, ular aqliy, axloqiy, estetik tomondan rivojlanadi, xarakterida ma'lum ijobiy xususiyatlar yuzaga keladi, mehnat qilishga o'rganadi va hokazo.

Pedagogika fani bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni tarbiyalash masalalarini ilmiy tomondan ishlab beradi. Ona tili o'qitish metodikasi pedagogika fani yangiliklariga, uning yuqorida qayd etilgan masalalarni ilmiy tomondan ishlab bergan ma'lumotlariga asoslanadi.

Ona tili o'qitish metodikasi o'zbek tilini amaliy va ma'lum qismini nazariy egallashni nazarda tutadi, shuning uchun ham lingvistik fanlar (fonetika va fonologiya, leksikologiya va frazeologiya, so'z yasalishi va etimologiya,

grammatika – morfologiya va sintaksis, stilistika, shuningdek, orfoepiya, grafika, orfografiya) metodikaning muhim asosi hisoblanadi.

1.O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.T.:”Sharq”,2000, 53-55 – betlar.
Umumiy psixologiya . T.: O'qituvchi. 47-bet.

Morfologiya va sintaksis mavhum til hodisalarini shakllantirishni, til qurilishi haqida tushuncha hosil qilishni to'g'ri tashkil etishga , grammatik tushunchalardan to'g'ri yozuv masalalarini hal qilish uchun foydalanishga imkon beradi. Grammatikadan bilimi bo'lmagan o'quvchilarda orfografiya va punktuatsiyadan ko'nikma va malakalarni shakllantirish mumkin emas. **Grammatika o'quvchilar nutqini o'stirishda muhim ro'l o'ynaydi, chunki grammatika so'z shakllarini to'g'ri tuzish, so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarni o'zaro to'g'ri bog'lash va gapni to'g'ri tuzishga o'rgatadi..**

Ona tili o'qitish metodikasining tamoyillari

O'quvchilarga ona tilini o'rgatish, ularni tarbiyalash, har tomonlama o'stirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariyasiga asoslanib, barcha yaqin, o'zaro bogliq fanlar tavsiyalariga asoslanib, ona tili o'qitish metodikasi o'z tamoyillarini ishlab chiqadi.Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan tashqari tamoyillar bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi.

Ona tili o'qitish tamoyillari 5 ta:

1.Til materiyasiga, nutq organlarining o'sishiga, nutq malakalarining to'g'ri rivojlanishiga e'tibor berish tamoyili.Nutq, til qonuniyatlariga, oz bo'lsa-da, e'tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi.Masalan, fonetik ko'nikmalarga yetarli e'tibor berilmasa, imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta'lim tamoyili tildan olib boriladigan mashg'ulotlarda eshituv va ko'ruv ko'rsatmaliligini ta'minlashni va nutq

organlarini mashqlantirishni (gapirib berish, ifodali o'qishni, ichida gapirishni) talab etadi.

2.Til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) tushunish prinsipi. So'zni, morfemani, so'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqea-hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash demakdir. Til ma'nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning hamma tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, stilistika)ni o'zaro bog'langan holda o'rganish hisoblanadi. Masalan, **morfologiyani sintaksisga tayangan holdagina o'rganish, o'zlashtirish mumkin. Sintaksisni o'rganishda esa morfologiyaga suyaniladi,** orfografiya fonetika, grammatika, so'z yasalishiga suyanadi va h.k. **So'zni morfemik tomondan tahlil qilish uning ma'nosini tushunishga yordam beradi.** Tilning hamma tomonlari bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, o'qitishda buni, albatta, hisobga olish kerak.

3.Tilga sezgirlikni o'stirish prinsipi. Til - juda murakkab hodisa, uning tuzilishini, sistemasini fahmlab olmay turib, sal bo'lsa-da, uning qonuniyatlarini, o'xshashliklarini o'zlashtirmay turib, uni yodda saqlab bo'lmaydi. Bola gaplashish, o'qish, eshitish bilan til materiallarini yig'adi, uning qonunlarini o'zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik (til hodisalarini tushunish) xususiyati shakllanadi.

4.Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarini tushunmay turib savodli yozish, nutq madaniyati vositalarining xabar berish funksiyasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodalilik (uslubga oid) funksiyasini tushunishni, mazmuninigina emas, balki so'z va nutq oborotlarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy ottenkalarini ham tushunishni ko'zda tutadi. Bu tamoyilga amal qilish uchun, birinchi navbatda, badiiy adabiyotlardan, shuningdek, tilning funksional-stilistik xususiyatlari aniq ifodalangan boshqa matnlardan foydalanish talab etiladi.

5.Og'zaki nutqni yozma nutqdan oldin o'zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil ham kishi nutqining rivojlanishiga ta'sir etadi va til o'qitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi.

Metodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi, o'qituvchi bilan o'quvchining maqsadga muvofiq faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo'nalishni tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elementlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

1.G'ulomov A. Ona tili o'qitish metodlariva prinsiplari. T. 1992.

2.G'ulomov A.Ona tili ta'limi mazmuni.T., 1995.

3. G'ulomov Yo va boshq. O'zbek tili o'qitish metodikasi. T.,1995.

1.2.Morfologiya haqiga umumiy ma'lumot

Grammatika tilshinoslikning bir qismi hisoblanib, morfologiya va sintaksis bo'limlarini qamrab oladi. Unda tilning grammatik qurilishi o'rganiladi. Morfologiya grek tilidan (morfe-shakl, logos-so'z) olingan bo'lib, so'zlarning tuzilishi, o'zgarishi hamda so'z turkumlarining o'ziga xos qonuniyatlarini tadqiq etadi. Morfologiya bo'limida so'z turkumlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi.

So'zlarning qaysi turkumlarga mansubligini bilish uchun ularning lug'aviy ma'nosidan xabardor bo'lish lozim. O'zbek tilida otlar dastlab ikki turga bo'linadi. 1. Turdosh otlar. 2. Atoqli otlar.

Turdosh otlar bir turdagi narsalarning nomini bildiradi: *bola, ota, odam, gul, yaproq, qor, uzum, bog', qush, olma* kabi.

Atoqli otlar shaxslar, narsa, voqea-hodisa, tashkilot va muassasalar, asarlar, gazeta-jurnallar, geografik joylar, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlardir: *Mahmud, Samarqand, «Xalq so'zi» gazetasi, «Fan va turmush» jurnali, «Xamsa» dostoni* kabi.

Jamlovchi otlar bir xildagi narsalarning jamini anglatuvchi otlardir: *xalq, olomon, guruh, to‘da, gala, qo‘shin, poda* kabi. Aniq otlar kishi sezish a‘zolariga ta‘sir etuvchi narsalarning nomlarini anglatadi: *bo‘yoq, yomg‘ir, tam, hid, havo, quyosh, muz, paxta, shira, tosh* kabi.

Mavhum otlar inson ongi orqali idrok qilinishi mumkin bo‘lgan tushunchalarning nomlarini anglatadi: *ong, fikr, xayol, baxt, shodlik, quvonch, sevgi, qo‘rquv, hayajon*, kabi.

O‘zbek tilida ko‘pgina atoqli otlar turdosh ot, sifat, fe‘l kabi boshqa turkumlarga oid so‘zlar asosida paydo bo‘ladi: *Lola, Ra‘no, Qo‘chqor, Arslon, SHirin, Buyuk, Aziz, Turdi, O‘lmas, Tursun* kabi.

Ko‘plik kategoriyasi. O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi ikki usul bilan hosil bo‘ladi: 1. Morfologik usul. 2. Sintaktik usul. Birinchi usulda otlarga -lar qo‘shimchasi qo‘shilib ko‘plik hosil qilinadi: *qushlar, yo‘llar, dalalar, qishloqlar* kabi. Ikkinchi usulda ko‘plik so‘zlar yordamida hosil qilinadi: *bir to‘p bola, o‘nta bola, bir guruh bola, ko‘p bola, bir necha bola, bir to‘da bola, ancha bola* kabi. O‘zbek tilida quyidagi to‘rt guruh otlar odatda ko‘plik qo‘shimchasi olmasdan qo‘llanadi: 1. Atoqli otlar: *Toshkent, Anvar, Zarafshon, Urgut* kabi. 2. Donalab sanalmaydigan otlar: *shakar, guruch, suv, choy, sut, neft, tuz, tuproq, qum, unkabi*. 3. Mavhum otlar: *baxt, do‘stlik, quvonch, hayot, ishq, qayg‘u* kabi. 4. Inson tanasi a‘zolari nomlari: *soch, ko‘z, quloq, qo‘l, oyoq, tish, lab., tirnoq* kabi.

Egalik kategoriyasi. O‘zbek tilida u yoki bu narsa, buyumning uchala shaxsdan biriga tegishli ekanligini ifodalash uchun otlarga ma‘lum egalik qo‘shimchalarini qo‘shish lozim. Ular quyidagilar:

Birlik sonda	Ko‘plik sonda
--------------	---------------

Shaxs	Unlidan so‘ng	Undoshdan so‘ng	Unlidan so‘ng	Undoshdan so‘ng
I	<i>tog‘a-m</i>	<i>kitob-im</i>	<i>Tog‘a-</i>	<i>kitob-imiz</i>
II	<i>tog‘a-</i>	<i>kitob-ing</i>	<i>miz</i>	<i>kitob-ingiz</i>
III	<i>ng</i>	<i>kitob-i</i>	<i>tog‘a-</i>	<i>kitob-lari(i)</i>
	<i>tog‘a-si</i>		<i>ngiz</i>	
			<i>tog‘a-</i>	
			<i>lari(si)</i>	

Odatda egalik qo‘shimchasini olgan so‘zdan oldin qaratqich kelishigidagi so‘z keladi: *Mening baxtim, akamning shimi, sening so‘zing* kabi. Quyidagi uch holatda so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilishi bilan so‘z o‘zagida o‘zgarish yuz beradi: 1. So‘zning o‘zagi [k] tovushi bilan tugagan bo‘lsa, bu tovush [g] tovushiga aylanadi: Masalan: *telpak, uzuk, ertak* kabi. *Telpagim, telpaging, telpagi, telpagimiz, telpagingiz, telpaklari* kabi. 2. So‘zning o‘zagi [q] tovushi bilan tugagan bo‘lsa, bu tovush [g‘] tovushiga aylanadi. Masalan: *o‘rtoq, qishloq, barmoq, qoshiq, sochiq* kabi. *O‘rtog‘im, o‘rtog‘ing, o‘rtog‘i, o‘rtog‘imiz, o‘rtog‘ingiz, o‘rtoqlari* kabi. 3. Quyidagi so‘zlarga qo‘shilganda so‘z oxiridagi unli tovush tushib qoladi: *O‘g‘lim, o‘g‘ling, o‘g‘li, o‘g‘limiz, o‘g‘lingiz, o‘g‘illari* kabi. Ammo bu qoidalarga ishtirok, idrok, polk, bank, tank, blok, park, erk, burk, yuk, huquq, haq, zavq, xalq, xulq, axloq, nutq kabi so‘zlar bo‘ysunmaydi.

Kelishik kategoriyasi. O‘zbek tilida oltita kelishik bor. Kelishik qo‘shimchalari so‘zlarni o‘zaro sintaktik aloqaga kiritib, ularni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladi. 1. Bosh kelishik. Morfologik ko‘satkichi, ya‘ni qo‘shimchasi yo‘q. Bosh kelishikdagi so‘z kim?nima?qayer?so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Bosh kelishikdagi so‘z asosan ega yoki ot-kesim vazifasida keladi. Shuningdek bosh kelishik shakli izohlovchi, undalma, sifatlovchi-aniqlovchi vazifalarida ham kelishi mumkin. *Ega: Alisher Navoiy 1467-1469 yillarda Samarqand shahrida*

yashagan. Kesim: *Kamoliddin Behzod* - - buyuk rassom. Undalma: *Bahodir, bugun darsga soat nechada borasan?* Izohlovchi: *Professor Xudoyberdi Doniyorov o'zbek shevalari haqida yirik ilmiy tadqiqotlar yaratdi.* Aniqlovchi: *Sho'rva yog'och qoshiq bilan ichiladi.*

2. Qaratqich kelishigi. Qo'shimchasining. Kimning? nimaning? qayerning? so'roqlariga javob bo'ladi. Nutqda belgili, ya'ni qo'shimchasi qo'shilgan holda va belgisiz, ya'ni qo'shimchasi yashirin holda qo'llanadi. Gapda faqat qaratqichli aniqlovchi bo'lib keladi. Belgili: *Universitetning hovlisida katta oshxona bor.* Belgisiz: *Tog' echkilari qishda pastga tushadi.* Qaratqich kelishigi qarashlilikni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunda qaratqich kelishigidagi so'zdan keyingi so'z tegishli shaxsdagi egalik qo'shimchasini olgan bo'ladi. Masalan: *mening kitobim, sening daftaring, uning qalami, bizning uyimiz* kabi. Narsa-buyum aniq bir shaxsga tegishli bo'lganda qaratqich kelishigi belgili holda, qarashlilik mavhum, umumiy bo'lganda belgisiz holda qo'llanadi. Masalan: *akamning do'sti, opamning xonasi, cho'l havosi, majlis qarori* kabi.

3. Tushum kelishigi. Qo'shimchasi -ni. kimni? nimani? qayerni? so'roqlariga javob bo'ladi. Bu kelishik ham nutqda belgili yoki belgisiz holda qo'llanadi. Gapda faqat vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Tushum kelishigidagi so'z umumiylikni, noaniqlikni ifodalasa, belgisiz holda bo'ladi. Aniq bo'lganda esa belgili qo'lanadi. Masalan: *she'r o'qiyapman-Abdulla Oripov she'rini o'qiyapman. Film ko'ryapman- «Kelinlar qo'zg'oloni» filmini ko'ryapman* kabi. Atoqli otlar, olmoshlar, egalik qo'shimchasini olgan so'zlar, sifat-dosh va harakat nomlari belgili holda qo'llanadi. Masalan: *Alisherni ko'rdim. Ahmadni chaqiring, daftarimni bering* kabi.

4. Jo'nalish kelishigi. Bu kelishikning qo'shimchasi so'zning qanday tovush bilan tugashiga qarab uch xil ko'rinishda qo'shiladi: -ga, -ka, -qa. Agar so'zning o'zagi [g], [k] tovushlari bilan tugagan bo'lsa, -ka qo'shimchasi, [g'], [q] tovushlari bilan tugagan bo'lsa, -qa qo'shimchasi, qolgan barcha hollarda -

gaqo‘shimchasi qo‘shiladi. Kimga?Nimaga?Qayerga?so‘roqlariga javob bo‘ladi. Masalan: *barg – barkka, qarmoq- qarmoqqa, to‘yga, shaharga* kabi. Faqat bu qoida rus tilidan o‘zlashgan *geolog, filolog, biolog* kabi so‘zlarga tadbiq etilmaydi: *geologga, filologga, biologga* kabi bo‘ladi. Bu kelishikdagi so‘z gapda vositali to‘ldiruvchi va hol vazifalarini bajaradi. Masalan: *Akamga zardo‘zi cho‘pon sotib oldik. Yozda Baxmaltog‘iga dam olgani boramiz. Og‘zaki nutqda jo‘nalish kelishigining belgisiz qo‘llanish hollari ham uchraydi. Masalan: Yakshanba kuni Urgut bordik. Kelasi hafta Toshkent bormoqchimiz.*

1.T o‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T., 2006.

2.To‘xliyev B., Shamsieva M., Ziyadova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. T.

5. O‘rin-payt kelishigi. Qo‘shimchasi –da.Kimda? Nimada? Qayerda? Qachon? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Gapda vositali to‘ldiruvchi va hol vazifalarida keladi. Masalan: *Na‘matakda S darmondorisi ko‘p. Talabalarda til o‘rganishga qiziqish katta. Samarqandda oltita oliy o‘quv yurti bor.*

6. Chiqish kelishigi. Qo‘shimchasi –dan. Kimdan? Nimadan? Qayerdan? Qachondan beri? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Bu kelishikdagi so‘z ish-harakatning boshlanish o‘rni yoki paytini anglatadi. Gapda vositali to‘ldiruvchi va hol vazifalarini bajaradi. Masalan: *O‘qituvchi talabalardan uyga berilgan vazifani birma-bir so‘radi. Paxtadan momiq, qog‘oz, yog‘, plyonka, porox kabi qimmatbaho mahsulotlar olinadi. Sportchilarimiz Sidney olimpiadasidan bittadan oltin, kumush va uchta bronza medal bilan qaytishdi. Telefonimiz nimagadir kechadan beri ishlamayapti.*

Otlarning tuzilishiga ko‘ra turlari. O‘zbek tilida otlar tuzilishiga ko‘ra uch xil bo‘ladi. 1. Sodda otlar. 2. Qo‘shma otlar. 3. Juft otlar.

Sodda otlar birgina o‘zakdan tashkil topib, sodda tub va sodda yasama turlarga bo‘linadi. Sodda tub otlar tarkibida yasovchi qo‘shimchalar ishtirok

etmaydi: *paxta, dala, sholi, uzum, chumchuq, tog', xola* kabi. Sodda yasama otlar soʻz yasovchi qoʻshimchalar yordamida yasaladi. Quyidagi qoʻshimchalar yordamida koʻplab yasama otlar hosil qilinadi: *-chi, -kor, -kash, -xon, -doʻz, -gar, -shunos, -soz, -paz, -boz, -xoʻr, -dor, -furush, -dosh, -lik, -chilik, -garchilik, -zor, -goh, -iston, -don, -xona, -ma*. Masalan: *xizmatchi, paxtakor, mehnatkash* kabi.

Qoʻshma soʻzlar ikki va undan ortiq soʻzlarning oʻzaro birikuvidan hosil boʻladi: *gultojixoʻroz, qoʻlqop, koʻzoynak, qizilishton, Kattaqoʻrgʻon* kabi.

Juft otlar ikki har xil soʻzning oʻzaro teng aloqaga kirishuvidan hosil boʻladi, doim chiziqcha bilan yoziladi: *opa-uka, kiyim-kechak, idish-tovoq* kabi.

Sifat soʻz turkumi

Sifat shaxs, narsa, voqea-hodisa kabilarning belgisini bildiradi. Sifatlar maʼnosiga koʻra, quyidagi guruhlariga boʻlinadi: 1. Feʼl-atvor, xususiyat bildiruvchi sifatlar: *yaxshi, yoqimtoy, odobli, chaqqon* kabi. 2. Holat bildiruvchi sifatlar: *goʻzal, sovuq, tinch, boy* kabi. 3. Rang-tus bildiruvchi sifatlar: *oq, qora, qizil* kabi. 4. Shakl-koʻrinish bildiruvchi sifatlar: *dumaloq, yassi, doʻng* kabi. 5. Hajm-oʻlchov, masofa bildiruvchi sifatlar: *keng, tor, uzun, chuqur* kabi. 6. Maza-tam bildiruvchi sifatlar: *shirin, nordon, shoʻr* kabi. 7. Hid bildiruvchi sifatlar: *xushboʻy, muattar, ifor* kabi. 8. Vazn-ogʻirlik bildiruvchi sifatlar: *ogʻir, yengil, vazmin* kabi. 9. Oʻrin va paytga munosabat bildiruvchi sifatlar: *kuzgi, kechki, qishgi, yozgi, tashqi, ichki, quyidagi, pastdagi* kabi.

Sifatlar tuzilishiga koʻra uch turli boʻladi. 1. Sodda sifatlar. 2. Qoʻshma sifatlar. 3. Juft sifatlar. Sodda sifatlar birgina oʻzakdan tashkil topib, sodda tub sifatlar va sodda yasama sifatlarga boʻlinadi. Sodda tub sifatlar tarkibida yasovchi qoʻshimchalar ishtirok etmaydi: *qiziq, katta, koʻk* kabi. Sodda yasama sifatlar

tarkibida tegishli yasovchi qo'shimchalar mavjud bo'ladi: *vijdonli, ishsiz, tiniq, tinch, sayroqi, oilaviy, ilmiy* kabi.

Quyidagi qo'shimchalar yordamida sodda yasama sifatlar yasaladi: *-li, -lik, -siz, -gi (-ki, -qi), -dor, -kor, -iy, -viy, -ma -simon, -parvar, ser-, be-, no-, -mas, -imli, -chan* va h. Misollar: *chiroyli, aqlli, ko'ylaklik, qishloqlik suvsiz*. Qo'shma sifatlar birdan ortiq so'zlarning o'zaro birikuvidan hosil bo'ladi: *jigar rang, ochko'z, sofdil, hozirjavob, kamgap* kabi. Juft sifatlar ikki har xil sifatning o'zaro teng bog'lanishi yoki bir sifatning takrorlanishidan hosil bo'ladi: *katta-kichik, oq-qora, yosh-qari, yaxshi-yomon, issiq-sovuq, quyuq-suyuq, katta-kattakabi*.

O'zbek tilida sifatlar otdan oldin kelib, u bilan bitishuv usuli orqali bog'lanadi: *qizil qalam, ishchan yigit, aqlli bola* kabi. O'zbek tilida sifatning uchta darajasi mavjud. 1. Oddiy daraja. 2. Qiyosiy daraja. 3. Orttirma daraja. Oddiy daraja sifatning o'zagi yoki negiziga teng bo'ladi: *yashil, yumshoq,*

sariq, yengil, qattiq, qisqa kabi. Qiyosiy daraja sifat o'zagi yoki negiziga –

roq qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi hamda bir belgining boshqasiga nisbatan ortiq yoki kamligini bildiradi: *qoraroq, uzunroq, qattiqroq* kabi. Orttirma daraja belgining o'ta yuqori yoki pastligini ifodalaydi: Bu daraja sifatlar oldidan juda, juda ham, g'oyat, g'oyatda, nihoyatda, eng, hammadan kabi so'zlardan birini keltirish orqali hosil qilinadi: *juda og'ir, g'oyat go'zal, eng kuchli, hammadan ortiq* kabi. Bulardan tashqari, o'zbek tilida sifatning ozaytirma va kuchaytirma shakllari ham mavjud. Ozaytirma sifatlar belgining kamligini bildiradi: *oq-oqish, qora-qoramtir, sariq-sarg'ish* kabi. Kuchaytirma sifatlar esa belgining ortiqqligini ifodalaydi: *qora - qop-qora, tim qora; oq - oppoq, ko'k - ko'm-ko'k, tekis - tep-tekis, yumaloq - yum-yumaloq, katta - kap-katta, ho'l - jiqqa ho'l* kabi.

Sifatlar gapda, asosan, aniqlovchi vazifasida, ba'zan kesim yoki hol vazifalarida ham keladi. Masalan: *Shahrimizda ulkan binolar, go'zal istirohat bog'lari, tarixiy yodgorliklari ko'p. Shahrimizning ko'chalari juda go'zal va*

chiroyli. Sifatlar otlashganda boshqa bo‘laklar vazifasida ham kela oladi. Sifatning otlashishi – nutqda sifatdan keyin keladigan otning tushib qolishi va ot bajarishi lozim bo‘lgan sintaktik vazifalarning sifatning zimmasiga o‘tishidir. Masalan: *Dunyoda yaxshilar ko‘p. Yaxshining sharofati tegsa, yomonning kasofati tegadi.* Undalma: *Ey yaxshilar, bechoralarga yordam qilishni unutmang.*

Son so‘z turkumi

Son shaxs, narsa, voqea-hodisalarning son-sanog‘ini, miqdorini, joylashish tartibini bildiradi. Sonlarni ma‘nosi va grammatik xususiyatlariga ko‘ra, ikki turga bo‘lish mumkin. 1. Sanoq sonlar. 2. Tartib sonlar.

Shahobiddinova Sh.H. O‘zbek tili morfologiyasi. Andujon -2012.

Sanoq sonlar ham o‘z navbatida bir necha turga bo‘linadi:

1. Miqdor sonlar. Ular bir turdagi narsalarning umumiy miqdorini anglatadi, ularning maxsus qo‘shimchasi yo‘q. O‘zbek tilida miqdor sonlar quyidagilar: *bir, ikki, uch, to‘rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to‘qqiz, o‘n, yigirma, o‘ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to‘qson, yuz, ming.* Bundan katta sonlar *million, milliard, trillion* baynalmilal sonlardir.
2. Dona sonlar narsalarning yakka, donalab sanaladigan umumiy miqdorini bildiradi. Miqdor sonlarga –*ta* qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil bo‘ladi: *yuzta qo‘y, mingta daraxtkabi.* Dona sonlar ko‘p hollarda hisob so‘zlar bilan ham qo‘llanadi. Bunday holda –*ta* qo‘shimchasi o‘rnida hisob so‘z keladi. Quyidagilar nutqda hisob so‘z vazifasini bajarishi mumkin: *dona, nafar, bosh, tup, nusxa, juft, bet, pud, metr, so‘m, kilo, daqiqa, soniya, gektar, bog‘va hokazo.*
3. Taqsim sonlar shaxslar yoki narsalarning taqsimlanish yoxud guruhlanish miqdorini ifodalaydi. Sonning bu turi miqdor

sonlarga –*tadan* qo‘shimchasini qo‘shish orqali yoki bir sonning takror qo‘llanishidan hosil bo‘ladi: *ikkitadan, uchtadan* kabi.4. Chama sonlar shaxslar, narsalarning taxminiy, noaniq miqdorini bildiradi. U miqdor sonlarga –*tacha, -larcha, -lab* qo‘shimchalaridan mosini qo‘shish yoki ikkita sonning o‘zaro teng berildi. Juftlashib qo‘llanishidan hosil bo‘ladi: *o‘ntacha talaba, minglab qushlar, besh-o‘nta daftar* kabi. 5. Jamlovchi sonlar shaxslar, narsalar miqdorini jamlab, umumlashtirib yoki ajratib ko‘rsatadi. Ular miqdor sonlarga –*ov, -ovlon, -ala* qo‘shimchalaridan tegishlisini qo‘shish bilan hosil bo‘ladi: *ikkovi, uchovlon, to‘rtalasi* kabi.6. Kasr sonlar butunning qismini, bo‘lagini ifodalaydi: *yarim, chorak, nim chorak, to‘rtan bir, ikki butun o‘ndan besh* kabi. Tartib sonlar ham miqdor sonlarga –*nchi, -inchi* qo‘shimchalaridan mosini qo‘shish orqali hosil bo‘lib, narsalarning tartibini, joylashish o‘rnini bildiradi: *ikkinchi, to‘rtinchi* kabi.

Sonlar tuzilishiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi. 1. Sodda sonlar. 2. Murakkab sonlar. Sodda sonlar birgina o‘zakdan tashkil topadi: *bir, o‘n, yuz, yetmish, to‘qson, ming* kabi. Murakkab sonlar ikki va undan ortiq sonlar birikuvidan hosil bo‘ladi: *o‘n bir, bir yuz o‘ttiz olti, ikki ming ikki yuz to‘qson yetti* kabi.

Son o‘zi birikib kelgan ot bilan bitishuv usuli orqali bog‘lanadi. Son morfologik yoki sintaktik yo‘l bilan boshqa so‘z turkumlaridan yasalmaydi. Miqdor sonlarga qo‘shimchalar qo‘shish bilan boshqa tup sonlarning hosil bo‘lishi yasaliş emas, balki sonning o‘z ichki o‘zgarishlaridir.

Sonlar ham gapda sifatlar kabi, asosan, *aniqlovchi* va *kesim* vazifasini bajaradi. Aniqlovchi: *Men bugun ukamga juda qiziq ikkita kitob sotib oldim.* Kesim: *Darslarga doim tayyorlanib keladigan talabaning bahosi besh.* Sonlar ham otlashganda boshqa bo‘laklar vazifasida kela oladi. Ega: *Mana shu talabalardan biri har kuni darsga kech qolib keladi.* To‘ldiruvchi: *Birni birovdan minnat bilan olgandan ko‘ra, mingni mehnat qilib topgan yaxshi.* Hol: *Nurmurod betob do‘sti holidan har kuni ikki*

marta xabar olib turdi. Undalma: Birinchi, birinchi, birinchi, men o'ttiz yettinchiman, qanday eshityapsiz, qabul

Olmosh so'z turkumi

Olmosh ham mustaqil so'zlar turkumiga mansub bo'lib, nutqda ot, sifat, son so'z turkumlari o'rnida qo'llanadi. Olmosh shaxs, narsa, belgi va miqdorni ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Olmoshlar ham xuddi sonlar kabi boshqa so'z turkumlaridan morfologik yoki sintaktik yo'l bilan yasalmaydi. Biroq son va olmosh turkumiga mansub so'zlar boshqa so'z turkumlarini yasash uchun asos bo'lishi mumkin: *birlik, ikkilanmoq, biryo'la, sensiramoq, sizlamoq, manmanlik, allaqachon* kabi. Olmoshlar ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra yetti *guruhga* bo'linadi. Kishilik olmoshlari: *men, biz, sen, siz, u, ular*. I shaxs birlik sondagi kishilik olmoshi ko'plik sondagi I shaxs kishilik olmoshi bilan almashinib ham qo'llanadi. Masalan: *Kitoblarni men keltiraman. Kitoblarni biz keltiramiz*. Ushbu gaplarning har ikkalasida ham ishni bajaruvchi birlik sondagi birinchi shaxsdir. Shuningdek, II shaxs birlikdagi kishilik olmoshi o'rnida II shaxs ko'plik sondagi kishilik olmoshi qo'llanib, ko'plikni emas, balki hurmat ma'nosini anglatadi. Masalan: *Uyga sen birinchi kir. Uyga siz birinchi kiring*. Har ikkila holatda ham bir kishi nazarda

tutilyapti. Odatda ko'plik ma'nosi *–lar* qo'shimchasi qo'shilganda anglashiladi: *Sizlar tezroq boraveringizlar, orqalaringizdan yetib boramiz*.

Kishilik olmoshi kelishiklar bilan quyidagicha turlanadi: Bosh kelishik: *men, sen, u, biz, siz, ular*. Qaratqich kelishigi: *mening, sening, uning, bizning, sizning, ularning*. Tushum kelishigi: *meni, seni, uni, bizni, sizni, ularni*. Jo'nalish kelishigi: *menga, senga, unga, bizga, sizga, ularga*. O'rin-payt kelishigi: *menda, senda, unda, bizda, sizda, ularda*. Chiqish kelishigi: *mendan, sendan, undan, bizdan, sizdan, ulardan*.

Men va *sen* kishilik olmoshlari qaratqich va tushum kelishiklarining qo'shimchalarini olganda, ular tarkibidagi bir [n] tovushi tushib qoladi: *men-ning*, *sen-ni* shaklida emas, *me-ning*, *se-ning* shaklida bo'ladi. Xuddi shuningdek, *u* kishilik olmoshi jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklarining qo'shimchasini olganda, tarkibida bir [n] tovushi orttiriladi: *u-ga*, *u-da*, *u-dan* shaklida emas, balki *un-ga*, *un-da*, *un-dan* kabi. *Men* kishilik olmoshi o'rinda mumtoz adabiyotda *kamina*, *faqir*, *qo'lingiz*, *banda* kabi so'zlar ham qo'llanib kelingan. *Sen* kishilik olmoshiga –*lar* ko'plik qo'shimchasi qo'shilgan holda qo'llanishi ham uchraydi. Bunda mensimaslik, kamsitish, istehzo, ta'na kabi ma'nolar burtib turadi. Masalan: *Senlar bu yerda nima qilyapsanlar? Men senlarga aytyapman*. Ko'plik sonidagi birinchi shaxs *biz* kishilik olmoshi ham nutqda –*lar* ko'plik qo'shimchasi bilan qo'llanishi mumkin. Bunda ko'plik ma'nosi yanada kuchaytiriladi. Masalan: *Bu ishni biz bajaramiz*.

O'zlik olmoshi o'z so'zidagina iborat. O'zlik olmoshi turlanadi :o'*zim*, o'*zimiz*, o'*zing*, o'*zingiz*, o'*zi*, o'*zlari*; o'*zim*, o'*zimning*, o'*zimni*, o'*zimga*, o'*zimda*, o'*zmdan*. Egalik qo'shimchalarini olgan o'zlik olmoshi uchala shaxsdagi kishilik olmoshlariga sinonim bo'ladi: *men* – o'*zim*, *sen* – o'*zing*, *u* – o'*zi*, *biz* – o'*zimiz*, *siz* – o'*zingiz*, *ular* – o'*zlari* kabi.

Shahobiddinova Sh.H. O'zbek tili morfologiyasi. Andijon -2012.

So'roq olmoshlari *shaxs*, *narsa*, *belgi*, *vaqt*, *miqdor* va hokazolar to'g'risidagi so'roq ma'nosini bildiradigan so'zlardir. Bu tur olmoshlarga quyidagi so'zlar kiradi: *kim? nima? qanaqa? nechta?..* kabi. O'zbek tilida aksariyat so'roq olmoshlari ko'plikda ham qo'llana oladi: *kimlar? qaysilar?..* kabi. So'roq olmoshlari ham turlanadi: *kimim, kiming, kimimning, nimaga...kabi*

Ko'rsatish olmoshlari *shaxs*, *narsa* yoki *belgini* ko'rsatish uchun xizmat qiladi: *u, bu, shu, o'sha, ushbu, mana, ana, mana, shu, shunaqa, shuncha* kabi. Mumtoz adabiyotda ko'rsatish olmoshlari *ul, bul, shul, o'shal* kabi ko'rinishlarda

qo‘llangan. Ko‘rsatish olmoshlari ko‘plik, egalik va kelishik qo‘shimchalarini olib turlanadi: *bularingizni, ana unisini, shunisiga* kabi. Odatda, ko‘rsatish olmoshi bilan bog‘langan so‘z ko‘plik, egalik va kelishik qo‘shimchalarini olib turlangan bo‘ladi, olmosh esa o‘zgarishsiz qoladi: *bu kitobimga, shu ishlaringizdan, o‘sha odatini, shu bog‘imizning* kabi.

Belgilash olmoshlari shaxslar, narsalarning to‘dasini, jamini, yig‘indisini bildiradi yoki ularni ajratib, ta’kidlab ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Ularga quyidagilar kiradi: *hamma, bari, jami, barcha, butun, yalpi*. Shuningdek, belgilash olmoshlari *har* so‘zi bilan *bir*, *narsa* hamda so‘roq olmoshlarining birikuvidan hosil bo‘ladi: *har bir, har narsa, har kimhar qancha, har qachon* kabi. Belgilash olmoshlari ham egalik va kelishik qo‘shimchalarini qabul qiladi (bundan faqat birlik sonning I shaxsi mustasno): *hammang, har biring, hammasi, har birimizdan...kabi*. O‘zbek tilida belgilash olmoshlari otlar bilan bog‘langanda, o‘z shaklini o‘zgartirmaydi: *har bir gul, har qanday bola, barcha maktablar* kabi.

Bo‘lishsizlik olmoshlari mavjud bo‘lmagan shaxs, narsa, belgi yoki miqdorni ko‘rsatish uchun qo‘llanadi. Bo‘lishsizlik olmoshlari *bir*, *narsa* hamda so‘roq olmoshlariga *hech* so‘zini qo‘shish orqali hosil bo‘ladi. Ularga quyidagi so‘zlar kiradi: *hech bir hech kim, hech qaysi, hech qachon, hech qayer*. Bo‘lishsizlik olmoshlari ham egalik va kelishik qo‘shimchalarini olib turlanadi: *hech kimim, hech kiming, hech kimning...kabi*. Gumon olmoshlari o‘zi mavjud bo‘lgan, ammo noma’lum shaxs, narsa, belgi yoki miqdorni ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Gumon olmoshlari, asosan, so‘roq olmoshlariga –*dir* yoki *alla*-qo‘shimchalaridan birini qo‘shish orqali hosil bo‘ladi: *kimdir, allanima, nechtadir, allaqancha*, kabi. –*dir* va *alla*- qo‘shimchalari vazifasiga ko‘ra bir xildek ko‘rinsa-da, ba’zan bir so‘zga qo‘shilganda turli ma’no ifodalashi mumkin: *allaqachon, qachondir* kabi. Shuningdek, *bir narsa, bir nima, allanarsa, biror, biron, birov, ba’zilar, biror kimsa, qaysi bir, bir necha, bir qancha* kabilar ham gumon olmoshlari hisoblanadi. Gumon olmoshlari ham egalik va kelishik qo‘shimchalarini olib o‘zgaradi. Faqat –*dir* qo‘shimchali gumon

olmoshlarining turlanishi boshqa olmoshlarning turlanishidan bir oz farq qiladi: *kimdir, kimingdir, kimningdir, kimnidir...* Olmoshlar tuzilishiga ko'ra uch turli bo'ladi. 1. Sodda olmoshlar. 2. Murakkab olmoshlar. 3. Juft olmoshlar. Sodda olmoshlar birgina o'zakdan tashkil topgan bo'ladi: *men, sen, u* kabi. Murakkab olmoshlar ikki va undan ortiq tarkibli bo'ladi: *har kim, hech nima, har qaysi, ana o'sha* kabi. Juft olmoshlar ikki olmoshning o'zaro teng aloqaga kirishuvidan hosil bo'ladi: *siz-biz, sen-men, u-bu* kabi. Olmoshlar gapda ot, sifat va son so'z turkumlariga xos sintaktik vazifalarni bajaradi. Ega: *Men bu yilgi barcha sinov va imtihonlarni faqat «a'lo» baholarga topshirdim.* Kesim: *Bu ishlarning bajarilishi uchun javobgar shaxs – sen.* Aniqlovchi: *Sening qilmishlaring uchun yaqinlaring uyalmasliklari lozim.* To'ldiruvchi: *Hammadan gumonsiraydigan odamning o'ziga ishonib bo'lmaydi.* Hol: *Bu mashq bunday bajarilmaydi, shuni ham bilmadingmi*

Fe'l so'z turkumi

Harakat va holat ma'nosini bildiradigan mustaqil so'z turkumiga fe'l deb ataladi. Fe'l o'zagi yoki negiziga –*moq* harakat nomi qo'shimchasini qo'shish bilan uning noaniq shakli hosil qilinadi: *haydamoq, tishlamoq, so'zlamoq, tunamoq* kabi.

Fe'ling tub yoki yasama shaklidan zamon, mayl, nisbat, shaxs-son va boshqa shakllar hosil qilinadi. Fe'ling mayl, zamon va shaxs-son shakllarini olib o'zgarishi *tuslanish* deyiladi. Fe'llar ish-harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligini ifodalashga ko'ra ikki turga bo'linadi. 1. Bo'lishli fe'llar. Bunday fe'llar ish-harakatning uchala zamondan birida bajarilishini, tasdig'ini bildiradi: *keldi, olyapti, ko'rmoqchiman, yugurding, to'qiysiz* kabi. 2. Bo'lishsiz fe'llar esa ish-harakatning uchala zamondan birida bajarilmasligini, inkorini bildiradi: *uchmadi, sezmayapti, olmoqchi emas* kabi. U o'zbek tilida bo'lishsizlik ma'nosi –*ma, -mas* qo'shimchalaridan mosini qo'shish orqali, *emas* to'liqsiz

fe'li, yo'q va na yordamchilari vositasida hosil bo'ladi: *yurma, tortmayman, burmoqchi emas, shoshgan emasmiz, na o'qiydi, na yozadi* kabi.

Fe'l nutq jarayonida so'zlovchi, tinglovchini hamda suhbatda ishtirok etmayotgan shaxsning harakatini ham ifodalashi mumkin. O'zbek tilida shaxslarning harakat va holatini *birlik* hamda *ko'plik* sonda ifodalovchi tegishli tuslovchi qo'shimchalar mavjud: *fe'l + zamon + man, + m, fe'l + zamon + miz, + k, fe'l + zamon + san, + ng, fe'l + zamon + siz, + ngiz, fe'l + zamon + ti, - fe'l + zamon + ti, + lar*.

O'zbek tilida fe'lining uch zamoni mavjud. 1. O'tgan zamon. 2. Hozirgi zamon. 3. Kelasi zamon. O'tgan zamon fe'li va uning shakllari. O'tgan zamon fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan oldin bajarilgan yoki bajarilmaganligini ifodalaydi. O'tgan zamon fe'li hozirgi va kelasi zamon fe'llariga nisbatan ko'proq shakllarga ega. Aniq o'tgan zamon shakli fe'l o'zagi yoki negiziga *-di* zamon va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'ladi. Uning tuslanishi quyidagicha: *ko'r-di-m, ko'r-di-k, ko'r-di-ng, ko'r-di-ngiz, ko'r-di, ko'r-di-lar, ko'r-ma-di-m, ko'r-ma-di-k, ko'r-ma-di-ng, ko'r-ma-di-ngiz...*

Aniq o'tgan zamon shakli ish-harakat so'zlovchining ko'z oldida yoki uning ishtirokida bajarilganini anglatadi. Masalan: *Men bu yil «Chimyon» sanatoriyasida dam oldim. U hozirgina poyezddan tushdi.* Yaqin o'tgan zamon shakli. O'tgan zamon fe'lining bu shakli fe'l o'zagi yoki negiziga *-gan* hamda shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'ladi va nutq so'zlanib turgan paytdan ancha ilgari sodir bo'lgan yoki sodir bo'lmagan ish-harakatni ifodalaydi: *ko'r-gan-miz, ko'r-gan-san, ko'r-gan-siz, ko'r-gan, ko'r-gan-la, ko'r-gan-im yo'q, ko'r-gan emas-man, ko'r-gan emas-san, ko'r-gan-imiz yo'q, ko'r-gan-lari yo'q...-gan* qo'shimchasi so'zning o'zagi [k] yoki [q] tovushi bilan tugashiga qarab, *-kan, -qan* tarzida qo'shilishi mumkin. Masalan: *Men ikkita chiroyli tuvakka gul ekkanman. Nega devorlarga mix qoqqansiz?*

Uzoq o'tgan zamon shakli o'zak yoki negizga *-gan edi* hamda shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'lib, yaqin o'tgan zamon shaklini ifodalagan vaqtdan ham ancha ilgari bajarilgan yoxud bajarilmagan ish-harakatni anglatadi. Qiyoslang: *Men bu kitobni o'qidim. Men bu kitobni o'qiganman. Men bu kitobni o'qigan edim.* Birinchi gapdagi ish-harakat yaqin kunlar ichida bajarilgan. Ikkinchi gapdagi ish-harakat esa bir oy yoki undan ko'proq vaqt ilgari bajarilgan. Uchinchi gapdagi ish-harakat bir yoki bir necha yil oldin bajarilgan bo'lishi ham mumkin: *yodla-gan edi-m, yodla-gan edi-k*

O'tgan zamon davom fe'li so'z o'zagi yoki negiziga *-r, -ar, -yotgan, -moqda* qo'shimchalaridan so'ng *edi* to'liqsiz fe'lini keltirish hamda shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'ladi. O'tgan zamon fe'lining bu shakli ish-harakatning davomli bo'lganligini, muntazam takrorlanib turganligini anglatadi. Misol: *Men bolaligimda ko'p kitob o'qir edim. Sen hovlida kitob o'qimoqda eding. U turnikda mashq bajarayotgan edi.*

-r, -ar, edi ko'rinishli fe'llarning inkor shakli bu qo'shimchalar o'rniga *-mas* inkor qo'shimchasi va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil bo'ladi. *-yotgan* qo'shimchasi oldidan esa *-ma* inkor qo'shimchasi keltirilishi bilan inkor shakli hosil qilinadi. *-moqda* qo'shimchali fe'llar bilan inkor shakli hosil qilinmaydi. Masalan: *ko'rar edim – ko'rmas edim, aytar edik – aytmas edik, borayotgan edik – bormayotgan edik, olayotgan edingiz – olmayotgan edingiz* kabi.

Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. T., 2008.

O'tgan zamon maqsad fe'li so'z o'zagi yoki negiziga *-moqchi* qo'shimchasi hamda *edi* to'liqsiz fe'li va tegishli shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil

qilinadi. Bunda o'tgan zamonda ish-harakatni bajarish maqsad qilib qo'yilganligi, rejalashtirilganligi ma'nosi anglashiladi.

Hozirgi zamon fe'li va uning shakllari. Hozirgi zamon fe'li ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytda bajarilayotgan yoki bajarilmayotganligini ifodalaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida hozirgi zamon fe'lining *ikki* shakli mavjud.

1. Hozirgi zamon davom shakli. 2. Hozirgi-kelasi zamon shakli.

Hozirgi zamon davom shakli quyidagi qo'shimchalardan birini fe'l o'zagi yoki negiziga qo'shib, shaxs-son qo'shimchalari bilan tushlash orqali hosil qilinadi: *-yap, -moqda, -yotib, -yotir, yurmoq, turmoq, o'tirmoq* va *yotmoq* fe'llari o'zagiga *-ib* hamda shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali ham hozirgi zamon davom shakli hosil qilinadi: *men yuribman, sen turibsan, u o'tiribdi, siz yotibsiz* kabi. Biroq bu fe'llar bilan shu zamonning inkor shaklini hosil qilib bo'lmaydi

-yotib, -yotir qo'shimchalari unli tovush bilan tugagan so'zlarga shu ko'rinishicha, undosh tovush bilan tugagan fe'llarga *-ayotib, -ayotir* shaklida qo'shiladi va shundan so'ng shaxs-son qo'shimchalari qo'shib tushlanadi.

-moqda qo'shimchasi ishtirokida inkor shakli umuman hosil qilinmaydi, so'roq shakli ham kamdan-kam hollarda qo'llanadi.

Hozirgi-kelasi zamon shakli undosh tovush bilan tugagan fe'lga *-a*, unli tovush bilan tugagan fe'lga *-y* qo'shimchasini qo'shish hamda tegishli shaxs-son qo'shimchalari bilan tushlash orqali hosil bo'ladi.

Kelasi zamon maqsad fe'li ish-harakatning maqsad, niyat qilinganligi, rejalashtirib qo'yilganligini anglatadi. Masalan: *Men kelgusi yil 20 gektar yerga sholi ekmoqchiman. Sen bu gullarni Charosga sovg'a qilmoqchimisiz Shuhrat o'rtog'inikiga mehmonga bormoqchi. Badia yangi yilni Toshkentda Shamsiya bilan kutib olmoqchi.*

Kelasi zamon gumon shakli fe'l o'zagi yoki negiziga -r, -ar qo'shimchalaridan mosini qo'shish va ulardan so'ng shaxs-son qo'shimchalarini keltirish orqali yasaladi. Inkori shakli –mas qo'shimchasi orqali hosil bo'ladi. Fe'lining bu shakli kelgusida amalga oshishi yoki amalga oshmasligi gumon, noaniq bo'lgan ish-harakatni anglatadi.

So'roq shakli tasdiq yoki inkor ko'rinishda tuslangan fe'lga –mi yuklamasini qo'shish orqali hosil qilinadi: *ko'rarmanmi ko'rarmi* kabi.

Fe'l mayllari. Ish-harakatning voqelikka munosabati mayl deyiladi. Voqelik – muayyan ish-harakatning ma'lum zamon va makonda shaxs tomonidan amalga oshirilishidir. O'zbek tilida fe'lining uch mayli farqlanadi. 1. Aniqlik yoki ijro mayli. 2. Buyruq-istak mayli. 3. Shart mayli.

Aniqlik maylining maxsus morfologik ko'rsatkichi yo'q. Aniqlik maylidagi fe'l ish-harakatning uchala zamondan birida yuz berayotganligi yoki bajarilayotganligidan xabar beradi. Masalan: *Bugun ertalab kuchli yomg'ir yog'di. Javohir o'rtoqlari bilan kutubxonada dars tayyorlayapti. Shahzod zamonaviy fotoapparat sotib olmoqchi. Sardor bu musobaqada ishtirok etmoqchi emas.*

Buyruq-istak maylidagi fe'llar buyruq, istak, maslahat, iltimos kabi ma'nolarni anglatadi. Bu mayldagi fe'ling I shaxsi istak, iltimos ma'nolarini, II shaxsi sof buyruq, iltimos ma'nolarini, III shaxsi esa maslahat, iltimos ma'nolarini bildiradi.

Shart maylidagi fe'llar boshqa biror ish-harakatning amalga oshishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo'lgan ish-harakat ma'nosini anglatadi. Shart mayli fe'l o'zagi yoki negiziga –sa qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'ladi va undan so'ng shaxs-son qo'shimchalari qo'shiladi: *borsam, borsang, borsa, borsak, borsangiz, borsalar* kabi.

O'zbek tilidagi shart maylining ma'nosi rus tilida *yesli* yoki *kogda* so'zlarining kelasi zamon shaklidagi fe'l bilan birikib kelishi

orqali beriladi. Qiyoslab ko‘ring: *Ertaga havo ochiq bo‘lsa, biz toqqa chiqamiz. Yozgi ta‘til boshlansa, biz oilamiz bilan dam olishga ketamiz.*

Fe‘l nisbatlari ish-harakatning bajaruvchisi (subyekti) bilan bajariluvchisi (obyekti) o‘rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Ish-harakatning ob‘ektga bo‘lgan munosabatiga qarab fe‘llar ikki turga bo‘linadi. 1. O‘timli fe‘llar. 2. O‘timsiz fe‘llar.

O‘timli fe‘llar tushum kelishigidagi so‘zlarni boshqarib keladi: *ashula (ni) aytmoq, xat (ni) yozmoq, olma (ni) termok, kitob (ni) o‘qimoq, kino (ni) ko‘rmoq* kabi. Qolgan fe‘llar esa o‘timsiz fe‘llar sanaladi: *uchmoq, uxlamoq, yig‘lamoq, kulmoq, gapirmok, charchamoq, uyalmoq, qulamoq* kabi. O‘timsiz fe‘llarga orttirma nisbat hosil qiluvchi qo‘shimchalardan mosini qo‘shib, ularni o‘timli fe‘lga aylantirish mumkin: *qushni uchirmok, bolasini uxlatmoq, ukasini yig‘latmoq, tomoshabinlarni kuldirmok, talabani gapirtirmok* kabi.

O‘zbek tilidao‘timli va o‘timsiz fe‘llardan nisbat hosil qilish mumkin. Aniq nisbatdagi fe‘llarning maxsus qo‘shimchasi yo‘q.

Fe‘llar ish-harakatning bajaruvchisi (subyekti) ham, bajariluvchisi (obyekti) ham bir shaxs yoki narsaning o‘zi ekanligini anglatadi. Bu nisbat fe‘lga *-l, -il, -n, -in* qo‘shimchalaridan mosini qo‘shish orqali hosil bo‘ladi: *yuvinmoq, kiyinmoq, bezanmoq, bo‘yanmoq, taranmoq, surinmoq, yiqilmoq, qoqilmoq* kabi. Masalan: *Gulsanam tongda turib yuvindi. Futbolchining oyog‘i qayrilib yiqildi.*

Majhul nisbatdagi fe‘l ish-harakatning bajaruvchisini ifodalamaydi. O‘zlik nisbatdagi fe‘llar kabi *-l, -il, -n, -in* qo‘shimchalari yordamida hosil

Shukrullaev N. Ona tili darslarida taqqoslash usulidan foydalanish.T.,

bo'ladi: *bug'doy ekildi, sayohatga borildi, xat yozildi, maydon shudgorlandi, ishlar bajarildi, hosil to'plandi, zarar qoplandi* kabi. Masalan: *Bu yil ob-havo yaxshi kelib, paxta ekilgan barcha yerlar erta shudgorlandi.*

Birgalik nisbatdagi fe'l ish-harakatning ikki va undan ortiq kishi tomonidan amalga oshirilishini anglatadi. Bu nisbat fe'lga *-sh, -ish, -lash* qo'shimchalaridan mosini qo'shish bilan hosil bo'ladi. Masalan: *O'qituvchi dars qoldirayotgan talabalar bilan suhbatlashdi. Ular boshqa dars qoldirmaslikka so'z berishdi.*

Orttirma nisbatdagi fe'llar ish-harakatning amalga oshishida boshqa biror shaxs yoki narsa vosita bo'lishini ifodalaydi. Bu nisbat fe'llarga *-t, -dir, -tir, -ar, -ir, -giz (-kiz, -qiz, -g'iz), -gaz, (-kaz, -qaz)* qo'shimchalaridan mosini qo'shib hosil qilinadi: *she'rni o'qit, bog'da ishlat, matnni yozdir, kalitni toptirtomga chiqar, qushlarni uchir, mashinani yurgiz, stulga o'tqiz* kabi. Masalan: *Gulnora ukasiga ertak o'qityapti. Mushuk daraxtga chiqib, qushlarni uchirdi.*

Fe'ling xoslangan shakllari. O'zbek tilida fe'ling uchta xoslangan (funktional) shakli mavjud. 1. Harakat nomi. 2. Sifatdosh. 3. Ravishdosh.

Harakat nomi fe'ling ot va fe'lga xos xususiyatlarga ega shaklidir. Biroq u fe'ldan ko'ra ot so'z turkumiga xos xususiyatlarni o'zida ko'proq namoyon qiladi. SHu sababli, ko'plik, egalik, kelishik qo'shimchalarini oladi hamda gapda otga xos sintaktik vazifalarni bajarib keladi. Harakat nomi fe'l o'zagi yoki negiziga *-sh, -ish, -v, -uv, -moq* qo'shimchalaridan birini qo'shish orqali hosil qilinadi. Inkori shakli esa *-maslik* qo'shimchasi bilan hosil bo'ladi. Masalan: *ishlash, to'qish, o'qish – o'qishlar – o'qishim – o'qishimni* kabi.

Sifatdosh o'zida sifat va fe'lga xos xususiyatlarni namoyon qila oladigan fe'l shaklidir. Sifatdosh fe'lga *-gan (-kan, qan), -r, -ar, -vchi, -uvchi* qo'shimchalaridan mosini qo'shish orqali hosil bo'ladi: *o'qigan kitobim, kelgan mehmonlar, ekan daraxtingiz, taqqan galstugi, oqar suv, aytar gap, yashar joyini, fikrlovchi kishiga, bog'chada ishlovchi ayollar* kabi. Masalan: *Men*

o‘qigan kitoblarimining ro‘yxatini yozib boraman. Bultur ekan daraxtlarimizning barchasi gulladi.

Sifatdosh gapda, asosan, aniqllovchi, kesim, otlashganda esa boshqa bo‘laklar vazifasida ham kela oladi.

Ravishdosh fe’lga *-b, -ib, -a, -y, -gach (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, quncha), -gani (-kani, -qani)* qo‘shimchalaridan mosini qo‘shish yo‘li bilan hosil qilinadi. Uning inkor shakli *-ma, -may, -masdan* qo‘shimchalari yordamida hosil bo‘ladi. Ravishdosh fe’lning ravish va fe’lga xos belgilarga ega shakli hisoblanadi: *turib gapirdi, yura-yura charchadi, o‘qiy-o‘qiy o‘rgandi, uyga borguncha, to‘yga aytgani* kabi. Masalan: *O‘ynab aytsang ham, o‘ylab ayt. Men yangi va qiyin so‘zlarni takrorlay-takrorlay yodlab olar edim.*

Fe’llarning yasalishi. O‘zbek tilida fe’llar ikki usul bilan yasaladi. 1. Morfologik usul. 2 Sintaktik usul.

Morfologik usul bilan sodda yasama fe’llar hosil bo‘ladi. Quyidagi qo‘shimchalar sodda fe’llar yasaydi: *-la, -lan, -lantir, -lashtir, -y, -a, -r, -ar, -i, -sira, -illa*. Masalan: *so‘zla, rohatlan, suhbatlash, chetlat, kuchsizlantir, qoray, ko‘kar, boyi, yangila, suvsira, xavfsira, begonasira, qarsilla, yaltilla, chiyilla* kabi.

Sintaktik usul bilan qo‘shma va juft fe’llar yasaldi. Qo‘shma fe’llar: *ishlab chiqarmoq, sotib olmoq, olib chiqmoq, olib ketmoq, bayon etmoq, qarshi olmoq, qo‘l qo‘ymoq, kasal bo‘lmoq* kabilar. Qo‘shma fe’llarni ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shimchalaridan farqlash lozim. O‘zbek tilida faqat ko‘makchi fe’l bo‘ladigan so‘zlar yo‘q. *Ol, tur, yur, o‘tir, bo‘l, bitir, yot, boshla, ber, qol, qo‘y, chiq, bor, kel, ket, yubor, tashla, sol, tush, o‘t, ko‘r, qara* kabi mustaqil ma’noli fe’llar ko‘makchi fe’l vazifasini bajarib kelishi mumkin. Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shimchalarida oldin kelgan so‘z yetakchidan, keyin kelgan so‘z ko‘makchi fe’l sanaladi. Mazmun yetakchi fe’l orqali yetkazilib, ko‘makchi fe’l, nomi aytib turganidek, unga yordam beradi. Ba’zan yetakchi fe’l bitta bo‘lgani holda, ko‘makchi fe’l bir necha bo‘lishi

ham mumkin. Ko‘makchi fe‘lsiz ham yetakchi fe‘lning o‘zi fikrni ifodalashi mumkin bo‘ladi. Qo‘shma fe‘llarning tarkibini esa ajratish mumkin emas. Ular birgalikda yangi ma‘no ifodalash uchun xizmat qiladi. Ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmalari: *o‘qib tur, o‘qib ol, o‘qib bo‘l, o‘qib yur, o‘qiy boshla* kabi.

Juft fe‘llar ikki har xil fe‘lning o‘zaro teng aloqaga kirishuvidan hosil bo‘ladi: *oldi-qo‘ydi, bordi-keldi* kabi. Ular har doim chiziqli bilan yoziladi.

O‘zbek tilida o‘z lug‘aviy ma‘nosini yo‘qotgan *edi, ekan, emish, emas* to‘liqsiz fe‘llari mavjud bo‘lib, ular gap tarkibida fe‘llar va fe‘l bo‘lmagan so‘zlar bilan birga qo‘llanadi: *kelgan – kelgan edi, o‘qigan – o‘qigan ekan, yozgan – yozgan emish, chiroyli – chiroyli emas*. To‘liqsiz fe‘llar o‘zi ergashib kelgan so‘zga turli qo‘shimcha ma‘nolar berish uchun xizmat qiladi.

Fe‘llarning sintaktik vazifasi. Fe‘llar gapda, asosan, kesim vazifasini bajaradi: *Gulbahor bu yil universitetning iqtisodiyot fakultetini bitirdi*. Fe‘lning xoslangan shakllari gapda boshqa sintaktik vazifalarni ham bajarib kela oladi. Harakat nomi ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifalarini bajaradi: *Yolg‘on gapirish – insonning obro‘yini to‘kadi. Maqsadimiz – farovon yashash. Jazirama yozda daryoda maza qilib suzishni kim yoqtirmaydi!? Oftobda toblanishning kishi sog‘lig‘iga foydasi katta. Biz bu yerga ilm o‘rganish uchun kelganmiz*.

Sifatdosh, asosan, aniqlovchi, kesim, otlashganda esa ega, to‘ldiruvchi, undalma, qaratqichli aniqlovchi vazifalarida keladi: *Aytilgan gap – otilgan o‘q. Bu gap ming marta aytilgan. Mehnat qilgan – rohat ko‘radi. Yolg‘on gapiradiganlarni kim ham yoqtiradi. Kech qolganlar, dekanning nomiga tushuntirish xati yozasizlar. Betga aytganning zahri yo‘q*.

Ravishdosh gapda asosan hol, ba‘zan kesim vazifalarida keladi: *Biz bugun futbol tomosha qilgani stadiona bormoqchimi. Qo‘ng‘iroq chalingach, hamma o‘quv xonalari tomon shoshildi. To‘yning vahimasi boshlanguncha*.

Ravish so'z turkumi

O'zbek tilida ravish turkumiga oid so'zlar ish-harakat yoki holatning belgisini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ravishlarga ayrim qo'shimchalarni qo'shish mumkin: *erta – ertaga - ertadan, nari – nariga – narida – naridan, kechqurun – kechqurungacha, hozir – hozirdan – hozirdanoq* kabi.

Ravishlar anglatgan ma'nolariga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi: 1. Holat ravishlari. 2. Payt ravishlari. 3. O'rin ravishlari. 4. Daraja-miqdor ravishlari. 5. Sabab ravishlari. 6. Maqsad ravishlari.

Holat ravishlari ish-harakatning qay holatda, tarzda, qanday qilib bajarilishini anglatadi: *tez, asta, sekin, jim, yayov, piyoda, xomligicha, darrov, darhol, birdan, birga, qo'qqisdan, majburan, tasodifan, astoydil, yaqqol, mardlarcha, qahramonlarcha, qatorasiga, bittalab, birma-bir, yonma-yon, arang, zimdan, qiyg'os, zo'rg'a, boshqacha, qushday, askardek, odamday* va hokazo. Holat ravishlari gapda tarz holi, aniqlovchi, kesim vazifalarida keladi. Masalan: *Ikki o'rtoq sanoat mollari do'konigacha yonma-yon suhbatlashib borishdi. Qip-qizil gilamdek lola-qizg'aldoqlar tovlanib ko'zni qamashtiradi. Auditoriya suv qo'ygandek jim, hamma sukutda.*

Payt ravishlari ish-harakatning bajarilish paytini bildiradi: *erta, indin, bugun, kecha, avval, hamisha, hali, hanuz, keyin, so'ng, so'ngra, ilgari, ertalab, endi, tunov kun, bultur, qadim, oldin, allaqachon, hamon, kechasi, yiliga, tezdan, yaqinda, hech qachon, dastlab, kunduzi, har kuni, kuni bilan, hozir, yildan-yilga, erta-indin, qishin-yozin, doim, har vaqt* kabi. Payt ravishlari gapda payt holi bo'lib keladi. Masalan: *Bu xatni egasiga shu bugunoq yetkazish kerak.*

O'rin ravishlari ish-harakatning bajarilish o'rnini, yo'nalishini bildiradi: *quyida, nari, beri, u yoqqa, bu yoqqa, allaqayerda, allaqayerga, allaqayerdan, unda-bunda, hech yoqqa, olg'a, shu yerda, har yerda, o'rtada, ichkari, tashqari* va

hokazo. O‘rin ravishlari gapda o‘rin ravishi vazifasini bajaradi. Masalan: *Qo‘shnimiz har kuni ertalab allaqayerga borib keladi.*

Daraja-miqdor ravishlari ish - harakatning bajarilish darajasini, miqdorini ko‘rsatadi. Ma‘nosiga qarab ularni ikki turga bo‘lish mumkin. Daraja ravishlari: *juda, g‘oyat, g‘oyatda, nihoyatda, obdan, rosa, aslo, har qancha, ozmuncha, sira, hech, benihoya, eng, tamoman, uncha, o‘ta, zir, asti, zinhor, hargiz, hadeganda* va hokazo. 2. Miqdor ravishlari: *ko‘p, oz, kam, bir oz, picha, qittak, xiyol, yana, tag‘in, sal-pal, jindek, mo‘l* va hokazo. Daraja-miqdor ravishlari gap tarkibida daraja-miqdor holi vazifasini bajarib keladi. Shuningdek, kesim, aniqllovchi, otlashganda esa ega, qaratqichli aniqllovchi va to‘ldiruvchi bo‘lib kela oladi. Masalan: Hol: *Bu gaplarni zinhor birovga ayta ko‘rma.* Aniqllovchi: *Ko‘p gap eshakka yuk, tezroq ishni tugatish kerak.* Kesim: *Ishyoqmasning bahonasi ko‘p.* Ega: *O‘ylaymanki, ko‘plar bu gapdan mutlaqo bexabar.* Qaratqichli aniqllovchi: *Ko‘pning fikriga qarshi borib bo‘lmaydi.* To‘ldiruvchi: *Ozni ham, ko‘pni ham qanoatli, sabrli odam topadi.*

Sabab ravishlari ish-harakatning bajarilish sababini anglatadi: *noiloj, chor-nochor, noilojlikdan, chorasizlikdan.* Sabab ravishlari gapda sabab holi vazifasida keladi. Masalan: *Bu xabarni eshitib, mennoiloj darvozadan qaytishga majbur bo‘ldim.*

Maqsad ravishlari ish-harakatning bajarilishidan ko‘zda tutilgan maqsadni ifodalaydi: *atay, atayin, ataylab, jo‘rttaga, qasddan* kabi. Maqsad ravishlari gapda maqsad holi bo‘lib keladi. Masalan: *Kecha ular ikkovi atayin ishxonamga qidirib kelishgan ekan.*

Ravishlarning ayrimlari sifatlar kabi belgini darajalab ko‘rsata oladi: *tez yurmoq, tezroq yurmoq, juda tez yurmoq; ko‘p tutmoq, ko‘proq tutmoq, nihoyatda ko‘p tutmoq; sekin suzmoq, sekinroq suzmoq, juda ham sekin suzmoq* kabi.

G'oziyev E. O'quvchilarni umumlashtirish usullariga o'rgatish va ularning aqliy taraqqiyoti. T., 1983.

Ravishlar ham morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladi. Quyidagi qo'shimchalar yordamida morfologik usul bilan sodda yasama ravishlar hosil bo'ladi: *-cha, -lar, -lab, -ona, -an, -ligicha, -lay, -dek, -day, -chasiga*. Misollar: *o'zbekcha, yangicha, hozircha, mardlarcha, do'stlarcha, qarindoshlarcha, yillab, oylab, tonnalab, do'stona, oqilona, mardona, taxminan kabi*.

Sintaktik usul bilan qo'shma va juft ravishlar yasaladi: *birmuncha, birvarakay, har vaqt, bir lahza, hech qachon, har zamon, shu yerda, tunov kun, asta-sekin, uzil-kesil, erta-kech, kecha-kunduz, kundan-kunga, yuzma-yuz, rang-barang, ko'chama-ko'cha kabi*.

Yordamchi so'z turkumlari

Yordamchi so'zlar nutqda mustaqil so'zlar orasidagi grammatik munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular sirasiga bog'lovchilar, yuklamalar va ko'makchilarni kiritish mumkin.

Bog'lovchilar gapning uyushiq bo'laklarini hamda qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladi. Bog'lovchilarni vazifasiga ko'ra ikki turga bo'lish mumkin. 1. Teng bog'lovchilar: *va, hamda, ammo, lekin, biroq, balki, yo, yoki, yoxud, yoinki, goh..., goh, dam..., dam, ba'zan..., ba'zan, ham..., ham*. 2. Ergashtiruvchi bog'lovchilar: *chunki, shuning uchun, negaki, toki, go'yo, go'yoki, gar, agar, agarda, basharti, garchi, garchand, -ki, -kim*. Masalan: *Bugun biz o'zbek tili darsida matn tarjima qildik va mashqlar ishladik. Kecha havo bulut bo'ldi, ammo yomg'ir yog'madi. Yo'lda avtobus buzildi, shuning uchun men darsga o'n daqiqa kech qoldim*.

Yuklamalar butun bir gapga yoki uning ayrim bo‘laklariga turli qo‘shimcha ma’no berish uchun xizmat qiladi. Ular tuzilishiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: 1. Qo‘shimcha yuklamalar: *-mi, -chi, -a, -ya, -ku, -gina, -da, -oq, -yoq*. 2. So‘z yuklamalar: *hatto, faqat, axir, xuddi, naq, ham, nahotki*. So‘z yoki gapga qo‘shimcha ma’no berish xususiyatlariga ko‘ra yuklamalarni bir necha guruhlariga bo‘lish mumkin: 1. Ko‘chaytiruv yuklamalari: *hatto, hattoki, axir, nahotki, ham, -ku, -u, -yu, -da, -oq, -yoq*. 2. Chegaralov yuklamalari: *faqat, faqatgina, -gina(-kina, -qi*. 3. So‘roq yuklamalari: *-mi, -chi, -a, -ya*. 4. Aniqlov yuklamalari: *xuddi, naq*. Masalan: *Siz «Turkiston» gazetasiga obuna bo‘ldingizmi? O‘zingiz-chi?*

Ko‘makchilar ot yoki otlashgan so‘zlarga bog‘lanib, uning boshqa bo‘laklar bilan munosabatini ifodalaydi. Ko‘makchi o‘zi bog‘langan so‘z bilan birgalikda bir so‘roqqa javob bo‘lib, birgalikda bir gap bo‘lagi vazifasida keladi. Ko‘makchi o‘zi mustaqil holda gap bo‘lagi bo‘la olmaydi. Ko‘makchilar vazifasiga ko‘ra rus tilidagi predloglarga yaqin turadi. Ko‘makchilar grammatik ma’nolariga ko‘ra uch turga bo‘linadi. 1. Sof ko‘makchilar. 2. Ot ko‘makchilar. 3. Fe‘l ko‘makchilar. Sof ko‘makchilarga quyidagilar kiradi: *bilan, uchun, kabi, singari, sayin, sari, uzra*. Ot ko‘makchilar: *tomon, tashqari, burun, ilgari, keyin, so‘ng, old, huzur...* Fe‘l ko‘makchilar: *ko‘ra, yarasha, qarab, boshlab, tortib, qaramay, qaraganda, osha, bo‘ylab* va hokazo. Masalan: *Bir guruh talabalar hozirgina kutubxona tomon o‘tishdi. Ikkinchi kurs talabalari birinchi kurs talabalariga qaraganda ancha tajriba orttirgan bo‘lishadi.*

Alohida guruh so‘zlar turkumi

O‘zbek tilida mustaqil so‘zlarga ham, yordamchi so‘zlarga ham kirmaydigan, o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan ham ajralib turadigan uch toifa so‘zlar turkumi bor. Ularni shartli ravishda alohida guruh so‘zlar turkumiga ajratish mumkin. Bularga undov so‘zlar, taqlid so‘zlar va modal so‘zlarni kiritish mumkin. Bu guruhlariga mansub so‘zlar lug‘aviy ma’no ifodalamasa-da, undov va taqlid so‘zlar gap tarkibida ma’lum sintaktik vazifalar bajarib keladi,

soʻzlovchining oʻz fikriga, atrofdagilarga munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Undov soʻzlar kishilarning his-tuygʻularini, hayvon va parrandalarga nisbatan buyruq-xitoblarini ifodalaydi. Undov soʻzlarni ikki turga boʻlish mumkin:

1. His-tuygʻu undovlari: *eh, oh, uh, himm, be, xo, hech, ey, ho, uf, tuf, dod, voy, hah, obbo, ura, oʻhoʻ, e-ha, e-he, i-i, iye, huv, hov, hoy, hey, tss, marsh, bas, hormang, borboʻling, rahmat, qani, allo, salom, xayr, ofarin, balli, qulluq, brakalla* vahokazo. 2. Buyruq-xitob undovlari: *beh-beh-beh, tu-tu-tu, chigi-chigi, quray-quray, kuch-kuch, bah-bah, mah-mah, pish-pish, mosh-mosh, xix, ishsh, kisht, chuh, chu, hayt, choʻk-choʻk, drr, trr, tak-tak, tek, pisht, tur, chak, cha, xoʻoʻsh, hoʻoʻk* vahokazo.

Taqlid soʻzlar Oʻzbek tilida atrofimizdagi turli-tuman narsalar, jonli va jonsiz tabiat tovushlari, shuʻla-harakatga nisbatan taqlidan hosil qilingan soʻzlar mazkur turni tashkil etadi. Ularni ikki turga boʻlish mumkin. 1. Tovushga taqlid bildiruvchi soʻzlar. 2. Shuʻla-harakatga taqlidni bildiruvchi soʻzlar. Tovushga taqlid soʻzlar: *qars, tars, tiq, taq, duk, , gʻiyq, vov, bidir-bidir, qult-qult, inga-inga, shivir-shivir, gʻir-gʻir* va hokazo. Shuʻla-harakatga taqlid soʻzlar: *yalt, yult, yarq, lim-lim, bij-bij, vij-vij, gir-gir, hang-mang, lapang-lapang, lang* va hokazo.

Modal soʻzlar har ikkala tilda ham soʻzlovchining oʻz nutqiga boʻlgan munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Oʻzbek tilida quyidagi soʻzlar modal soʻzlar sanalib, ular gapda kirish boʻlak vazifasida keladi: *albatta, haqiqatan, tabiiy, balki, chamasi, ehtimol, aftidan, shubhasiz, darhaqiqat, shekilli, mazmuni, aslida, rostdan, hoyna-hoy, oʻz-oʻzidan, har qalay, har holda, soʻzsiz, shaksiz, darvoqe* va hokazo.

Soʻz tarkibi soʻzlarning tuzilishiga koʻra turlari

Soʻz tarkibi. Soʻzning boʻlinmas, eng kichik maʼnoli qismi morfema deyiladi. Morfemalar soʻzning maʼnosiga munosabati jihatdan ikki turga boʻlinadi. 1. Oʻzak

morfema. O‘zak morfema lug‘aviy ma’no ifodalaydi: *ish, kishi, ko‘z, sigir, to‘rt, kel, yugur, asta, sariq, og‘ir* kabi. 2. Qo‘shimcha morfema. Qo‘shimcha morfema o‘zi mustaqil holda lug‘aviy ma’no ifodalamaydi. So‘zga birikib kelib, yangi ma’noli so‘z yasaydi, uning asl ma’nosiga har xil ma’nolar beradi yoki so‘zlarni o‘zaro bog‘laydi: *bola-lar, bola-gina, un-tacha, kel-moqda, bor-moqchi, gulzor, kuz-gi, qish-ki, kel-guncha, chiq-qach* kabi. So‘z yasovchi qo‘shimcha (morfema)lar o‘zakka qo‘shilib, yangi ma’noli so‘z yasaydi. Bunday qo‘shimchalar yordamida ot, sifat, fe’l va ravish turkumiga oid so‘zlar yasaladi.

1. Ot yasovchi qo‘shimchalar: *-chi, -kor, -shunos, -kash, -xon, -do‘z, -gar, -soz, -paz, -boz, -xo‘r, -parast, -dor, -bon, -dosh, -don, -xona, -ma, -ch, -obod.*

2. Sifat yasovchi qo‘shimchalar: *-li, xush-, bad-, sur-, ba-, be-, no-, -mand, -siz, -chan, -chak, -ag‘on, -mon, -gi, -ki, -qi, -mas, -iy, -viy, -simon, -parvar, -aki, -bop.*

3. Fe’l yasovchi qo‘shimchalar: *-la, -lan, -lash, -illa, -ira, -a, -ay, -y, -ar, -r, -sira, -i, -ik, -iq, -t.*

4. Ravish yasovchi qo‘shimchalar: *-cha, -larcha, -chasiga, -siga, -iga, -ona, -lab, -an, -chang, -lay.*

Shakl yasovchi qo‘shimchalar 2xil: lug‘aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar. Lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar so‘zning lug‘aviy ma’nosini butunlay o‘zgartirmay, unga qo‘shimcha ma’no yuklash uchun xizmat qiladi. Bunday qo‘shimchalar barcha mustaqil so‘z turkumlariga kiruvchi so‘zlarga qo‘shilib kelishi mumkin. Ot so‘z turkumiga xos so‘zlarga: *dala-lar, qiz-gina, buzoq-cha, toy-choq, kelin-chak, bo‘ta-loq* kabi. Sifat so‘z turkumiga xos so‘zlarga: *oq-ish, katta-roq, ko‘k-imtir, qora-mtir, sariq-qina, kichik-kina, yengil-gina.* Son so‘z turkumiga xos so‘zlarga: *o‘n-ta, yuz-tacha, ming-larcha, million-lab, besh-tadan, uch-ov, to‘rt-ovlon, uch-ala* kabi. Olmosh so‘z turkumiga xos so‘zlarga: *kim-dir, alla-nima.* Fe’l so‘z turkumiga xos so‘zlarga: *o‘qi-t, yoz-dir,*

kel-sa, bor-di, ayt-gin, ko‘r-sin, art-ish, sur-moq, ol-moqchi, tur-gan, kul-ib kabi. Ravish so‘z turkumiga xos so‘zlarga: *bugun-oq, ertaga-yoq, kech-roq, ko‘p-gina* kabi.

Sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar so‘zlarning nutqda o‘zaro sintaktik aloqaga kirishuvlarini ta’minlash uchun xizmat qiladi. Ularga quyidagilar kiradi: 1. Kelishik qo‘shimchalari: *-ning, -ni, -ga, -ka, -qa, -da, -dan*. 2. Egalik qo‘shimchalari: *-m, -im, -ng, -ing, -si, -i, -miz, -imiz, -nigiz, -ingiz, -lari*. 3. Fe’llardagi shaxs-son qo‘shimchalari: *-man, -san, -ti, -miz, -siz, -tilar, -m, -ng, -k, -ngiz* kabi. Bunday qo‘shimchalar yangi so‘z ham yasamaydi, so‘zga qo‘shimcha ma’no ham bermaydi. So‘zlarni o‘zaro bog‘lash uchun xizmat qiladi. Masalan: *Men universitet-da o‘qiy-man. Dars-imiz soat o‘n-da boshlana-di*.

So‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turlari. O‘zbek tilida so‘zlar tuzilishiga ko‘ra uch turga bo‘linadi. 1. Sodda so‘zlar. 2. Qo‘shma so‘zlar. 3. Juft so‘zlar. Sodda so‘zlar ham o‘z navbatida ikki turga bo‘linadi. 1. Sodda tub so‘zlar. 2. Sodda yasama so‘zlar. Sodda tub so‘zlar birgina o‘zakdan tashkil topib, tarkibida so‘z yasovchi qo‘shimchalar bo‘lmaydi: *bog‘, bog‘lar, bog‘larda, bog‘lardadir*. Sodda yasama so‘zlar tarkibida so‘z yasovchi qo‘shimchalar mavjud bo‘ladi: *bola-li, bola-siz, bola-lik, bola-larcha, bola-simon, bola-dek* kabi. Qo‘shma so‘zlar ikki va undan ortiq so‘zning o‘zaro birikuvidan hosil bo‘ladi. 1. Qo‘shma otlar: *gultojixo‘roz, gulhamishabahor, suvilon, tog‘olcha, O‘rta Osiyo, Quyi Chirchiq* kabi. 2. Qo‘shma sifatlar: *sohibjamol, mehmondo‘st, o‘zbilarmon, qo‘lbola, tinchliksevar, hozirjavob* kabi. 3. Qo‘shma fe’llar: *sotib olmoq, javob bermoq, olib kelmoq, olib chiqmoq, bayon etmoq, qo‘l qo‘ymoq, himoya qilmoq, qaror qilmoq* kabi. 4. Qo‘shma ravishlar: *bir oz, har zamon, bir yoqqa, hech qachon, har qachon, biryo‘la, ozmuncha, allaqayda, shu yerda, o‘tgan kuni, hamma vaqt* kabi. Juft so‘zlar ikki har xil so‘zning o‘zaro teng bog‘lanishidan hosil bo‘ladi. Nutqda juftlanib yoki takror holda qo‘llanish barcha mustaqil so‘z turkumlariga xos xususiyatdir. Juft otlar: *ota-ona, er-xotin, kuch-quvvat, tog‘- Tosh, gap-so‘z, kiyim-kechak, temir-tersak, g‘ala-g‘ovur, shovqin-suron* kabi. Juft sifatlar: *oq-*

qora, katta-kichik, baland-past, yaxshi-yomon kabi. Juft sonlar: besh-olti, qirq-ellik, bir-ikki, o'n besh-o'n olti, bir-ikki yuz, o'n besh - yigirma. Juft olmoshlar: sen-men, siz-biz, u-bu, shu-shu, o'sha-o'sha. Juft fe'llar: oldi-ketdi, ketdi-bordi, aytdi-qo'ydi, o'tdi-ketdi, qirdi-tashladi. Juft ravishlar: asta-sekin, erta-kech, eson-omon, kecha-kunduz, uzil-kesil, qishin-yozin kabi.

T o'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. T., 2006.

11. To'xliyev B., Shamsieva M., Ziyadova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. T., 2006.

II bob

2.1. Morfologiyani aqliy faoliyat usullari asosida o'rganish

Ona tili darslarida o'quchilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, o'qitishning tadqiqotchilikka asoslangan metodlarini keng qo'llash ularni mustaqil bilim olish usullari bilan qurollantirishni taqozo etadi. Ayniqsa, fan-texnika tez sur'atlar bilan rivojlanib, o'quvchilarga berilayotgan bilimlar hajmi tobora oshayotgan bugungi sharoitda bu masala yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni bilim olish usulariga o'rgatmay turib, ona tili o'qitish oldida turgan muhim vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilib bo'lmaydi.

Ona tilidan o'quvchilarni mustaqil bilim olish usullari bilan qurollantirish ularning o'quv-biluv faoliyatlarini faollashtirishning asosiy omillaridan biri sanaladi. O'quvchilar maktabda tilni bir sistema sifatida o'rgana boshlaydilar. Ular o'qitishning ikkinchi bosqichida (5-9-sinflar) til hodisalari, uning qonuniyatlari bilan chuqurroq tanishadilar. Tilni puxta o'zlashtirish uchun o'quvchi avvalo bilib olish yo'llarini, aqliy faoliyat usullarini bilishi lozim.

Chunki bilim olishda faoliyat usullarini o'rganmay turib faoliyatli bo'lish mumkin emas.

Ona tili o'ziga xos aqliy faoliyat usullarini, mantiqiy – lingvistik ishlarni bajara olish malakalarini talab etadi. Bu malakalarga analiz, sintez, kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, intuitsiya, abstraksiyalash kabilarni kiritsa bo'ladi.

O'quvchilarni til hodisalarini kuzatish usullariga o'rgatish. Kuzatuvchanlik inson faoliyatida muhim ahamiyat egallaydi, ayniqsa, o'quvchi faoliyatida muhim o'rin tutadi. U til materiallarini o'quvchining aqliy faoliyatidan o'tkazish va uni onli o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Kuzatish natijasida o'quvchi o'rganilayotgan til materialining eng muhim xususiyatlarini ko'rishi, uning ba'zan ko'zga tashlanmaydigan kichik belgilarini ham aniqlashi mumkin. Kuzatish, ayniqsa, o'rganilayotgan til materiali ichidan asosiy fikrni ajratishda qo'l keladi. Bu aqliy faoliyat usulidan darsning barcha bosqichlarida unumli foydalanish taqozo etiladi. Berilgan orfogramma va boshqalarni diqqat bilan kuzatish natijasida o'quvchi til hodisalari mohiyatini anglashga dadil qadam tashlaydi.

O'quvchilarni til hodisalarini taqqoslash usuliga o'rgatish. Bu faoliyat usuli til hodisalarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Chunki taqqoslash har qanday bilishning asosidir.

Taqqoslash til hodisalari o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlash imkoniyatini yaratadi, ularga soslangan holda o'quvchi umumiy xulosa va ta'riflar chiqaradi.

Ona tilidan barcha mavzularni taqqoslash usulida o'rganib bo'lmaydi. Bu usul quyidagi hollarda yaxshi samara ko'rsatadi:

O'rganilayotgan til hodisalari o'rtasida o'xshash va farqli tomonlar bo'lsa. Til hodisalari o'rtasidagi o'xshashlik va farqli tomonlarning mavjudligi uni taqqoslash imkoniyatini yaratadi. Masalan, ravish va sifatni o'rganishda, ulaning sintaksis vazifasini aniqlashda taqqoslash yo'li bilan o'rganish ancha samaralidir.

Taqqoslanayotgan til hodisalarning ayrim tomonlari o'quvchilarga oldindan tanish bo'lsa. O'quvchilar o'zlariga tamoman notanish bo'lgan til hodisalarini taqqoslay olmaydilar.

Taqqoslashda o'quvchilarni avval til hodisalarining farqli tomonlarini, keyin o'xshash tomonlarini aniqlashga o'rgatish lozim. Chunki, birinchisi ikkinchisini aniqlashni osonlashtiradi

Ona tili darslarida aqliy faoliyatning bu usulidan ratsional foydalanish o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini kengaytiradi, ularning faoliyatini faollashtirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Ona tili darslarida muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish

Ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi va mustaqil fikr yuritishlariga undashi bevosita ta'lim beruvchi faoliyatiga bog'liq. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'l, usul va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi. Ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, **o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga** erishadi. Zero, "agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar".

Yosh avlodni erkin mustaqil fikrlashi uchun ta'lim tizimida muammoli usuldan, muammoli vaziyatlarni yaratish yoki muammoli ta'limni tashkillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Muammoli ta'lim deyilganda, o'quv materialini ta'lim oluvchilar ongida ilmiy izlanishga undash, bilish vazifalari va muammolari paydo bo'ladigan qilib o'rganish tushuniladi. O'rgatishning bu usulida ta'lim oluvchining fikrlash faoliyatida mantiqiy, to'g'ri, ilmiy xulosalarni izlash va o'zlashtirishga rag'batlantiradigan muammoli vaziyatlar vujudga keladi. Yuzaga kelgan muammoni hal qilish uchun u o'rganiladigan qoidalarini to'g'ri tushunib olishga intiladi. Muammoli ta'limni tashkil qilishdan asosiy maqsad:

- a) o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;
- b) mustaqil bilim olish, o'z ustida ishlash ko'nikmasini singdirish;
- v) ta'lim oluvchilarning izlanuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirish;

g) o'z fikr - mulohaza va takliflariga suyanib xulosa chiqarishga, fikrlarni dalillar asosida asoslab berishga tajribalar o'tkazishga o'rgatishdan iboratdir.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida muammoli vaziyatlarning har xil turlaridan foydalanilmoqda. Tajribalarning ko'rsatishicha, muammo natijalarini topish ta'lim oluvchilarda o'qishga havas, izlash-qidirishga intilish, intellektual hislar, ruhiy kechinmalarni hosil qiladi. Muammoli ta'lim va uni tashkil etish bir qancha afzalliklarga ham ega:

1. Muammoli ta'lim ta'lim oluvchilarni mantiqiy-ilmiy, ijodiy, fikrlashga o'rgatadi.
2. Muammoli ta'lim o'quv axborotini chuqurroq o'zlashtirishga olib keladi.
3. Ruhiy qoniqish, o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonish tuyg'usini vujudga keltiradi.
4. Ta'lim oluvchilarda yangiliklar yaratish va mantiqiy xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.
5. Ta'lim oluvchilarning fikrlash faoliyatida har narsani bilishga havas, fahm-farosatni tarbiyalashga yordam beradi.
6. Ta'lim oluvchida mustaqil o'qishga qiziqish va yangilikka intilish hissini o'stiradi.
7. Ta'lim oluvchida ijod qilishga intilish va o'zgalar fikrini hurmat qilish kabi shaxsiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Sharq mutafakkiri A.R. Beruniyning pedagogik va didaktik qarashlarida, o'quvchilarni o'qitish hamda tarbiyalash jarayonida birinchidan, turli mavzularda mulohazalar yuritishni, shuningdek, o'quvchining zerikmasligini, xotirasiga malol keltirmaslikni (zo'riqtirmaslikni) ta'kidlab aytgan fikrlarini keltirish joiz: "Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir, hadeb bir narsani o'qiyverish zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli- tuman bog'-rog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bog' boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi voqea-narsa kishiga rohat bag'ishlaydi".

Muammoli ta'lim ona tili o'qitishda keng qo'llanadigan interfaol metodlardan biridir. Bu ta'lim texnologiyasi o'quvchini fikrlashga, mulohazali bo'lishga, o'rganilayotgan hodisa haqida keng va chuqur mushohada yuritishga o'rgatadi. Til hodisalarini o'rgatishda shu texnologiyadan foydalanilsa, o'quvchilar mavzuni teran va ongli idrok etadilar. Ona tili ta'limida hamma mavzularni o'rgatishda bu usuldan foydalanib bo'lmaydi. Mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda bu usul qo'llanishi mumkin. O'qituvchi muammo qo'yilishi mumkin bo'lgan mavzuni to'g'ri belgilay olishi kerak. Agar mavzu to'g'ri belgilanmasa, kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi.

Muammo darsning ma'lum qismida yuzaga keltiriladi va o'quvchilar e'tiboriga havola etiladi. O'quvchilar qo'yilgan muammoni hal qilish uchun mavzuga oid nazariy tushunchalarni atroflicha o'rganadilar, muammo yechimiga yordam beradigan amaliy ishlarni bajaradilar. Bunday amaliy ishlarga til hodisalarini taqqoslash, guruhlariga ajratish, misollar topish, hukm chiqarish kabi mustaqil ishlar kiradi.

O'qituvchi bu texnologiyani qo'llashda sinfni guruhlariga bo'lib ish olib borsa, maqsadga erishish imkoniyatlari kengayadi. Guruhlar muammoni birinchi bo'lib yechishga intiladilar va faolroq ishlaydilar. Guruhlar bilan ish olib borish muammo yuzasidan bir necha yechimlarni qiyoslash imkoniyatini ham beradi. O'quvchilar o'qituvchi yordamida muammoga oid eng to'g'ri yechimni belgilaydilar.

-
1. Yoʻldoshev Q. 7—9-sinflar uchun Adabiyot darsligi.
 2. Olimov S. 8-sinflar uchun Adabiyot darsligi.
 3. Zununov A., Esonov J. Maktabda adabiyot oʻqitish. T.: "Oʻqituvchi", 1985.

2.2. Mustaqil soʻz turkumlarini sintaksis asosida oʻrgatish

6-sinfda « Feʼl soʻz turkumi» mavzusini sintaksis asosida oʻrganish

6-sinfda « Feʼl soʻz turkumi» mavzusini sintaksisga bogʻlab oʻrgatishda “Guruhlarda ishlash ” metodidan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu keng qoʻllanadigan interfaol metodlardan boʻlib, bu metod oʻquvchilarning darsdagi faolligini taʼminlaydi, ularning munozarada qatnashish huquqini taʼminlaydi, boshqalar fikrini qadrlashga oʻrgatadi. Guruhlar bilan ishlash oʻquvchilar oʻrtasida vazifalarni aniq taqsimlashga tayanadi.

“Guruhlarda ishlash ” metodi asosida o’rganishning bir necha ko’rinishlarini tavsiya qilamiz:

1.O’tilgan mavzuga doir bilimlar savol-javoblar va mashqlar orqali mustahkamlangandan so’ng yangi mavzu e’lon qilinadi.Yangi mavzu: “Fe’l so’z turkumi” (1-soat)O’qituvchi mavzuni e’lon qilgandan so’ng bugungi o’tiladigan darsning maqsadini tushuntiradi va bu maqsadga erishish uchun sinfning guruhlariga bo’linib ishlashini aytadi. Sinf o’quvchilari o’qituvchi tomonidan ikki guruhga bo’linadi. (Bu guruhlar soni bundan boshqacha bo’lishi ham mumkin, biz mavzuning mohiyatidan kelib chiqib ikki guruhga ajratayapmiz).

1-guruh: “Bilimdon” 2-guruh:“Tafakkur”

O’qituvchi guruhlarning vazifasini tushuntirib, quyidagi so’zlarni ularning e’tiboriga havola qiladi:*yugurdi, o’rimaladi, gapirdi, qichqirdi, qurdi, cho’qidi, qizardi, sarg’aydi, o’ylandi, uchdi, yasadi, oqardi, chopdi, supurdi, ikkilandi, yig’ladi.*

1-guruh a’zolari shaxs yoki narsalarning harakatini ifodalagan so’zlarni,
2- guruh a’zolari shaxs yoki narsalarning holatini ifodalagan so’zlarni aniqlashini va ularning so’roqlarini topishni hamda shu so’zlar ishtirokida gaplar tuzishni vazifa qilib topshiradi va tayyorlanish uchun ma’lum bir vaqtni belgilaydi.

O’quvchilar galma- galdan o’zlari tuzgan gaplardagi har bir fe’lni topshiriq asosida izohlaydilar. Qaysi guruh a’zosi topshiriqlarni bajarishda xato qilsa, boshqa guruh a’zosi uni to’g’rilydi va bu bilan o’z guruhiga ball olib beradi. O’qituvchi guruhlarning javoblarini qiyoslab, zarur tuzatishlar kiritadi va to’g’ri javobni rag’batlantiradi.

2. O’qituvchi o’quvchilarning yoshi va ruhiyatiga mos bir she’r yoki matnni ta’sirchan hamda ifodali tarzda yod o’qishi , undagi “nima qildi”so’rog’iga javob bo’luvchi so’zlarni o’zi bog’langan so’z bilan birga yozib borishlarini guruhlariga topshiriq qilib berishi ham mumkin. Bunda o’qituvchi she’r (yoki matn) ni avval bir marta ifodali o’qigach, 2-marta o’quvchilarning yozib olishlariga imkoniyat yaratish uchun sekinroq sur’atda o’qiydi. Guruh a’zolari o’zaro hamkorlikda

topshiriqni bajaradilar.

Shundan so'ng o'quvchilarning javoblari, fe'llardan anglashilgan ma'no xususidagi fikrlari eshitiladi va xato hamda kamchiliklar tuzatiladi. Berilgan she'r yoki matndagi fe'llarni to'g'ri aniqlab, bu so'zlar bilan bog'lanishi mumkin bo'lgan so'zlarni to'g'ri anglay olgan, topshiriqlarni bajarishga eng faol ishtirok etgan o'quvchilar alohida e'tirof etiladi. O'quvchilarda fe'l xususida dastlabki tasavvurlarni vujudga keltirgach, o'qituvchi fe'lga doir nazariy ma'lumotlarni osonlik bilan tushuntiradi. Shundan so'ng turli mashq va topshiriqlar bajarilishi, savol-javoblar o'tkazilishi mumkin bo'ladi.

3. Fe'l so'z turkumini sintaksisga bog'lab o'rgatish kutilgan natijaga erishishning muhim omilidir: Guruh a'zolari ijodiy matn yozish bo'yicha ham bellashuvni davom ettiradilar 1- guruh 1-ustunchada berilgan so'zlar ma'nosiga mos fe'llar topib, gaplar tuzishsa, 2- guruh 2-ustunchada berilgan fe'llar ma'nosiga mos so'zlar topib, gaplar hosil qiladilar. Qaysi guruhning tuzgan gaplari ma'no, uslub jihatdan to'g'ri hamda go'zal tarzda tuzilgan bo'lsa, o'sha guruh g'oliblikni qo'lga kiritadi.

4. "Maktab bog'i" mavzusida o'z maktabingiz bog'i tasviri asosida matn tuzing " topshirig'ini berib, o'quvchilarni ijodiy ishlashga yo'naltirish ham yaxshi natija beradi. Albatta, matn mazmuni va undagi fe'llar izohiga e'tibor qaratish kerakligi o'quvchilarga uqtiriladi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tuzgan matnlarini tahlil qiladilar, bir – birlarining bajargan ishlarini xolisona, adolatli baholashga o'rganadilar.

Shundan so'ng mavzu yuzasidan xulosa chiqarish imkoni yuzaga keladi. Buning uchun o'qituvchi har bir guruhga savollar beradi va ularning javoblarini umumlashtiradi.

Guruh a'zolari savollarga javob topadilar va javoblarni ma'lum qiladilar. Shu asosda umumlashgan xulosa chiqariladi.

Darsning ana shunday usul asosida o'tkazilishi o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokchi bo'lishiga yordam beradi.

6-sinfda «Ot so'z turkumi» mavzusini sintaksis asosida o'rganish

5-sinfda « Ot so'z turkumi» mavzusini o'rganishda darslarni guruhlar aro bellashuv tarzida o'tkazish ta'lim jarayonining jonli va qiziqarli bo'lishiga yordam ko'rsatadi.

Guruhlar aro bellashuv esa ikki guruh bilan ishlashga mo'ljallangan. Bu usulda dars o'tkazish uchun sinf ikki guruhga bo'linadi. Albatta, sinfni guruhlariga ajratish o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi va har ikki guruhda faol o'quvchilar miqdorining teng bo'lishiga erishish lozim. Shundan so'ng guruhlariga mavzuga doir topshiriqlar berib boriladi va har bir guruhga topshiriqning bajarilishiga, darsdagi faolligiga ko'ra ball qo'yib boriladi. Guruhlar bu topshiriqlarni bajarish va mavzu yuzasidan xulosalar chiqarish, ijodiy ishlar bajarish jarayonida ham tengma-teng ishtirok etib boradilar. Guruhlar tomonidan yo'l qo'yilgan xato tanqid qilinmaydi, balki uni tuzatishga imkon beriladi. Guruhlar bir-birlarining xatolarini, kamchiliklarini tuzatishi va shuning hisobiga qo'shimcha ball olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Guruhlar tomonidan to'planadigan ballar oldindan tayyorlab qo'yilgan raqamlar orqali maxsus qog'oz kataklarga qo'yib boriladi. Guruh a'zolari o'zlari to'playotgan ballarni ko'rib, hisoblab boradi. O'rta qolayotgan guruh ko'proq ball to'plashga harakat qiladi. Bu esa sinfdagi faollikni yanada oshiradi va o'quvchilarni harakatdagi sub'ektga, izlanuvchan, ijodkor hamda fikrlovchi shaxsga aylantiradi. Bunday darajaga erishish uchun dars mavzusiga mos topshiriqlarni tanlay bilish kerak.

Otlarni sintaksis asosida o'rgatishda darslarni guruhlararo bellashuv tarzida o'tkazish asosida turli mazmun va shakldagi amaliy ishlar olib borilishi mumkin:

1.O'qituvchi quyidagi gapni o'quvchilar e'tiboriga havola etib, undagi kim va nima so'rog'iga javob bo'luvchi so'larni aniqlashni, bu so'zlar gapda qaysi so'zlar bilan bog'lanayotganini aniqlashni vazifa qilib topshirishi mumkin:
Ilm - sahroda do'st, hayot chorrahalarida tayanch, yo'Igiz damlarda yo'ldosh, bahtiyor daqiqalarda rahbar, qayg'uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebuziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir.(Hadisi Sharifdan)O'zbekiston –

vatanim manim!

Guruhlar o'zaro hamkorlikda matndagi do'st, yo izdosh, rahbar, odam, dushman so'zlari **kim?** so'rog'iga, ilm, sahro, hayot, chorraha, tayanch, dam,, daqiqa, on, , zebu-ziynat, , qurol, vatan so'zlari **nima?**, O'zbekiston so'zi esa **qayer?** so'rog'iga javob bo'layotganini, ularning qaysi so'zlar bilan bog'lanayotganini izohlaydilar. Topshiriqni tez va aniq bajargan guruh rag'batlantiriladi.

Shundan so'ng o'qituvchi shaxs, narsa, shuningdek, joy nomlarini bildirib, kim, nima, qayer so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar ot deyilishini, kim so'rog'i shaxsni bildiruvchi so'zlarga, nima so'rog'i narsa-buyumni bildiruvchi so'zlarga, qayer so'rog'i esa joy nomini bildiruvchi so'zlarga berilishini, shunga ko'ra otlar shaxs otlari, narsa-buyum otlari, o'rin-joy otlariga bo'linishini tushuntiradi.

2.O'qituvchi quyidagicha bog'lanishili matn berib, undagi otlarni topish va so'roqlarini aniqlashni hamda izohlashni, otlarning turlarini farqlashni vazifa qilib topshirishi mumkin: *Yurtimiz obod turmush yilida kundan kun chiroy ochib bormoqda. Obodonchilik ishlari avj olmoqda. Yangi-yangi, ko'rkam binolar qad ko'tarmoqda. Zamonaviy usullarda qurilayotgan uy-joylar odamlarga xush kayfiyat ulashmoqda. Xalqimiz bunday farovon turmush zavqidan boshi ko'kka yetib, Yurtboshimizdan, u kishining olib borayotgan oqilona faoliyatidan mamnun bo'lmoqda.*

O'quvchilar matndagi yurt, turmush, yil, chiroy, ish, bino, usul, uy-joy, odam, kayfiyat, xalq, turmush, zavq, bosh, ko'k (osmon), Yurtboshi, kishi kabi otlarni, ularning so'roqlarini va ot turlarini izohlaydilar. Topshiriqni berilgan vaqt oralig'ida tez , to'g'ri va aniq bajargan guruh g'olib hisoblanadi.

3.Otlarning tuzilishiga ko'ra turlari o'rganilgach, mavzuni mustahkamlash uchun matn berilib, undagi sodda , qo'shma va juft otlarning tagiga chizish hamda ularga izoh berish mashqini o'tkazish ham yaxshi samara beradi. Bu jarayonda mavzu yuzasidan olingan bilimlar mustahkamlanadi hamda o'quvchilarning og'zaki nutqi o'sadi. Chunki o'quvchilar otlarning turlari, faqat bir asosdan tarkib topgan otlar sodda, ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan otlar qo'shma, bir –

biriga yaqin yoki qarama- qarshi ma'noli asoslardan tarkib topgan otlar juft otlar, ikkinchi qismi birinchi qismining tovush o'zgarishi asosidagi takroridan tarkib topgan otlar takroriy otlar sanalishi haqidagi ma'lumotlarni og'zaki aniq va ravon izohlashlari talab etiladi. Shuning uchun ham o'quvchilarning o'z nutqiga bo'lgan mas'uliyati ortadi.

4. O'quvchilarga gaplar berilib, ulardagi ot so'z turkumiga mansub bo'lgan so'zlarning so'roqlarini hamda gapda qaysi gap bo'lagi vazifasini bajarayotganini aniqlash topshirig'ini berish ham mumkin. Masalan:

Bahor keladi. Gul mavsumi boshlanib ketadi. Daraxtlarda gul, bolalarning do'ppilarida lolalar qistirilgan. Savatlarda uyum-uyum binafshalar. Bu faslning zavqi o'zgacha.

O'quvchilar: 1- gapda *bahor* so'zi ot, nima so'rog'iga javob bo'ladi, bosh kelishikda, ega vazifasida kelgan... 3- gapda *daraxtlarda* so'zi ot, qayerlarda so'rog'iga javob bo'ladi, o'rin – payt kelishigida, gapda hol vazifasida kelgan, *bolalarning* so'zi ot, qaratqich kelishigida, kimning so'rog'iga javob bo'ladi, gapda aniqlovchi vazifasida kelgan... tarzida morfologik hamda sintaktik tahlilni o'qituvchi yordami va rahbarligida amalga oshiradilar.

Otlarning tuzilishiga ko'ra turlari (sodda, qo'shma, juft, takroriy), atoqli otlar (joy nomlari, tashkilot, korxona, muassasa nomlari; tarixiy sana va bayram nomlari, suv havzalari va inshootlari nomlari), turdosh otlar (shaxs otlari, narsa otlari, o'rin-joy otlari, faoliyat-jarayon otlari, aniq va mavhum otlar)ni ham morfologik hamda sintaktik tahlilni qo'shib olib borgan holda o'rganish mumkin. O'quvchilarga otlarning sintaktik vazifasi yo'l – yo'lakay tushuntirib borilsagina, maqsad amalga oshadi, chunki 6- sinf o'quvchilari hali sintaksis sathi bilan tanishmagan bo'lgani uchun o'qituvchi bu bo'limga doir dastlabki ma'lumotlar bilan ularni tanishtirib borishi kerak bo'ladi.

6-sinfda «Sifat so'z turkumi» mavzusini sintaxis asosida o'rganish

Sifat so'z turkumini o'quvchilarga o'rgatishda quyidagi mazmundagi mashq va topshiriqlardan foydalaniladi:

1. Berilgan soʻz birikmalaridagi qanday?, qanaqa?, qaysi? soʻroqlariga javob boʻluvchi soʻzlarni aniqlang:

Bepoyon Vatan, obod turmush, halol mehnat, qiziqarli kitob, yaxshi doʻst, aqlli bola, kuzgi ekin, devoriy gazeta, devordagi rasm, shirin taom, goʻzal axloq.

Oʻquvchilar bepoyon , obod , halol , qiziqarli , yaxshi , aqlli , shirin , goʻzal sifatleri qanday, qanaqa soʻroqlariga; kuzgi , devoriy , devordagi soʻzlari qaysi soʻrogʻiga javob boʻlishini aytadilar.

2. Soʻz birikmalari tuzing, undagi sifatlarning soʻroqlarini va ularning maʼno guruhlarini aniqlang tarzidagi topshiriqni berish va maʼlum vaqt oraligʻida bajarilgan ish natijasini hamkorlikda tahlil qilishni yoʻlga qoʻyish.

3. Matnni oʻqing, belgini bildirgan soʻzlarni aniqlang:

Raʼno oʻzi kichkina, lekin aqlli. U uy ishlarini bajarishda chaqqon. Onasi unga qiziqarli kitoblar sotib oldi. Chunki u qizining aʼlochi oʻquvchi boʻlishini xohlaydi...

Oʻquvchilar matndan *kichkina, aqlli, chaqqon, qiziqarli, aʼlochi* kabi belgini bildiruvchi soʻzlarni aniqlaydilar, soʻroqlarini va qanday belgini bildirayotganini izohlaydilar.

4. Sifatlarning maʼno guruhleri ishtirokida gaplar tuzing va ularni ogʻzaki izohlab bering. Bunday topshiriqlar oʻquvchilar bilimini mustahkamlash bilan birgalikda ularning ijodiy fikrlash, bogʻlanishli matn tuzish qobiliyatini ham oʻstiradi.

6-sinfda « Son soʻz turkumi» mavzusini sintaksis asosida oʻrganish

Son soʻz turkumini sintaksis asosida oʻrganishda quyidagi mashq turlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. Gaplarda ishtirok etgan sonlarni taqqoslash, ularning farqini tushuntirish mashqlari. Darslikdagi 392- mashq aynan shu talabga javob beradi: 1. *Nihoyat, butunlay holdan toyib, ikkovining qimirlashga ham majoli qolmay, taxtaday qotib turaverishibdi. (Ertakdan)* 2. *Qulupnayning mevasi naviga qarab , uchmadan- sakson tagacha boʻlishi ham mumkin. (M. Nabiyev)* 3.

Besh – oltita tinish belgi kelib bugun, o'tkazmoqqa qaror qildi jiddiy yig'in.(Sulton Jo'ra)

O'quvchilar sonlarning so'roqlari, ma'no va tuzilish turlarini aytib, ularni farqlashga harakat qiladilar.

2. “Nuqtalar o'rniga berilgan sonlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring” tarzidagi mashqlar. Masalan:

... eksang, ... o'rasan. ... o'lchab, ... kes. Shahrimizda ... maktablar bor. Kutubxonadan kitob oldim. Ukam ... sinfda o'qiydi.

Sonlar: birinchi, bir, beshta, o'nni, yetti, birni, o'nlab.

3. Gaplarni o'qing, sonlarni aniqlab, o'zi bog'lanayotgan so'zlar bilan birga ko'chiring. Masalan:

Beruniy Amerika qit'asining borligini Kolumbdan 450 yil avval taxminlagan. Hozirgi vaqtda bir yilda dunyo bo'yicha taxminan 800 ming tonnadan bir million tonnagacha choy yetishtiriladi...

O'quvchilar son ishtirokidagi so'z birikmalarini aniqlab, 450 yil, bir yilda, 800 ming tonna, bir million tonna tarzida ko'chirib, sonni izohlab, tahlil qilib beradilar.

6-sinfda « Ravish so'z turkumi» mavzusini sintaksis asosida o'rganish

O'quvchilarga ravish haqida ma'lumot berilgach, unga doir mashq va topshiriqlar ustida ishlanadi. Darslikda ravish so'z turkumini mustahkamlashga oid bir qancha mashq hamda topshiriqlar berilgan:

Topshiriqlar. Berilgan so'z birikmalaridagi belgi ifodalayotgan so'zlarni narsaning yoki harakat- holatning belgisini bildirishiga ko'ra farqlang:

Yayov yurdi, bafurja suhbatlashdi, arang ulgurdi,

Berilgan ravishlardan qanday?, qay holda?, qay tarzda? so'roqlariga javob bo'luvchi ravishlarni ajrating, bu so'zlarni gap ichida keltiring kabi.

Mashqlar. 1. Matndagi ravishlarni ajrating. Ularni o'zi bog'langan so'zlar bilan birga ko'chiring.

1. Gaplarni yozing. Ravishlarning tagiga chizing. Qanday ma'no anglatayotganini tushuntiring.

Shu payt nima uchundir , hamma birdan sharaqlab kulib yubordi. Ertaga o'rtoqlarimga uy vazifalarini bajarishda ko'maklashaman. U topshiriqni bajarganiga bir hafta bo'lgan bo'lsa ham uni boshlig'i darrov chaqirmadi.

2. Berilgan ravishlar ishtirokida gaplar tuzing va ravishlarning ma'no turlarini aniqlang:

Doim, hamisha, ataylab, aslo, galma-gal, oldin – ketin, birin- sirin, ustma-ust, do'stona, oz-oz, yoppasiga, noilojlikdan,yillab, fidokorona,tez, sekin, jim, piyoda.

O'quvchilar yuqoridagi ravishlar ishtirokida ijodiy gaplar tuzib, ularning ma'no turlarini aytib , izohlab beradilar. Bunday mashqlar o'quvchilarning mantiqiy fikrkash qobiliyatini rivojlantiradi, ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Bundan tashqari, tuzgan gap turlariga izoh berish talab etilsa, ularning **sintaksisga oid bilimlari ham mustahkamlanadi.**

-
1. Xusanboyeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikrni shakllantirish omili. T., 2009.
 2. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy – nazariy asoslari. T.: “O'qituvchi”, 1996.
 3. Quronov D. Adabiy ta'lim haqida ayrim mulohazalar

Yordamchi so'z turkumlarini sintaksis asosida o'rgatish

Yordamchi so'zlar, ularning vazifasi, o'ziga xos xususiyatlari xususida nazariy ma'lumotlar tushuntirilgandan so'ng, tayyorlangan matnning elektron varianti o'quvchilar diqqatiga havola etiladi. **Matn tarkibidagi mustaqil va yordamchi so'zlarni aniqlash hamda izohlash** bo'yicha guruhlariga topshiriq beriladi.Hamkorlikda matn ustida ishlash nihoyasiga yetgach, guruh a'zolari

navbatma-navbat ish natijasi bo'yicha izoh beradilar. Matndagi har bir yordamchi so'z nima uchun qo'llangani, ularning vazifasi hamda ahamiyati o'quvchilar tomonidan aniq va ravshan ko'rsatilishi talab etiladi. Zarur o'rinlarda o'qituvchi ularga yo'l- yo'riqlar berib turadi. Bu topshiriq o'quvchilarni ko'proq mustaqil ishlashga o'rgatadi va yordamchi so'zlarni farqlashga, mustaqil so'zlar hamda gaplarni bir-biriga bog'lash, ularning ma'nolariga qo'shimcha ma'no yuklashdagi ahamiyatini tushunib olishga yordam beradi.

Berilgan gaplarda nuqtalar o'rniga qavs ichidagi yordamchi so'zlardan mosini qo'yib ko'chirish mashqi. Avval tayyor matn ustida ishlagan o'quvchilar endi unga qaraganda murakkabroq vazifani bajarishga jalb qilinadi. Buning uchun o'quvchilar gap mazmuniga mos, ya'ni to'g'ri keladigan yordamchilarni ajrata bilishi hamda o'z o'rniga qo'yishni bilishi talab etiladi.

Berilgan yordamchi so'zlar (va, bilan, uchun, ammo, chunki, uzra, yarasha, agar, faqat, hatto, xuddi...) ishtirokida ijodiy matn tuzish mashqi.

Bunday mashqlar o'quvchilarni tezkor ishlashga, erkin **gap tuzish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga**, yozma nutqining o'sishiga olib keladi.

Keyingi bosqichlarda ish turi va shakli yanada murakkablashadi. Bu gal o'quvchilarga xohlagan **yordamchi so'zlar ishtirokida ijodiy matn yaratish** vazifasi topshiriladi. Mavzu e'lon qilingach, o'quvchilar mutlaqo mustaqil ravishda ish bajaradilar. Bunday topshiriqlar o'quvchilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Yani berilgan mavzu bo'yicha nimalarni yozish, qanday yozish, matn mazmunini ochishga xizmat qiladigan yordamchilarni aniqlash va ularni o'z o'rnida va maqsadga muvofiq holda to'g'ri qo'llash fikri uni talab darajasida yozishga undaydi. Bunday mashq va topshiriqlar o'quvchilarning **morfologiya va sintaksisga doir bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini** shakllantirishdan tashqari, ularni teran mushohadaga, ifoda imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qiladi.

“Mustaqil so'z turkumlari” mavzusida 1 soatlik dars ishlanmasi

8-sinf. Ona tili.

Darsning mavzusi: Mustaqil so'z turkumlari

Ta'limiy maqsad: O'quvchilarning 7-sinfda olgan bilimlarini esga solish, mustaqil so'z turkumlari, ularni bir-biridan ajratib beruvchi vositalar haqida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilardagi vatanparvarlik tuyg'usini yanada rivojlantirish, o'quvchilar o'rtasida do'stona munosabatni kuchaytirishga erishish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Tezkorlik bilan fikrni jamlashga o'rgatish, topqirlik va hozirjavoblik ko'nikmasini shakllantirish.

Dars metodi: Suhbat, bahs-munozara, aqliy hujum, «Tushunchalar taqlili» texnologiyasi.

Ko'rgazmali qurollar: Buklet, darslik, doska, kadaskop, tarqatmalar, flamaster, oqqoqozlar, ekran.

Dars bosqichlari yuzasidan vaqt taqsimoti

T/r	Dars bosqichlari	Ajratilgan vaqt
-----	------------------	-----------------

1	Tashkiliy qism	2 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni so'rash va takrorlash	10 daqiqa
3	Yangi mavzuning bayoni. Guruhlarda ishlash	20 daqiqa
4	O'rganilgan mavzuni mustahkamlash	8 daqiqa
5	O'quvchilarni baholash	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

1. Oldingi darsda berilgan malumotlar asosida sinf xonasi tayyorlanadi va o'quvchilar qo'nqiroq chalinishi bilan kirib o'zining guruhlarda ajratilgan joylarini egallaydilar.

O'qituvchi dars mobaynida muloqot qilish uchun guruhdagi o'quvchilar bilan kelishgan qolda guruhlariga nom qo'yadi.

Ushbu darsda o'quvchilar quyidagicha 5 ta guruhga bo'linishi lozim.

(Agar ekran yoki kadoskop bo'lmasa, oqqoqoz va markerlardan foydalanish mumkin.)

2. O'qituvchi o'quvchilarga dars boshlanishidan oldin «Oltin qoidalar» ga amal qilishini eslatib o'tadi. Taxminan oltin qoidalar shunday bo'lishi mumkin:

- o'z vaqtida gapir, qiska gapirib, qunt bilan o'rgan;

-o'zingni erkin tut, darsda faol bo'l;

-o'z fikringni aniq va ravon bayon et va o'zgalar fikrini qurmat qil, sabrli bo'l, so'zlovchining fikrini bo'lma;

so'zlovchi fikrini diqqat bilan eshit, uning fikrini tushunishga, kerak bo'lsa, unga o'z munosabatingni bildirishga harakat qil;

belgilangan vaqtga amal qilish.

(“Oltin qoidalar” dars mavzusi, hajmi, maqsadi, vazifasi, sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari, ruhiyatiga moslab o'zgartirilishi mumkin .)

II.O'tilgan mavzuni so'rash va takrorlash.O'qituvchi o'tilgan mavzularni so'rab, uy vazifasining o'zlashtirilish darajasini tahlil qiladi.Bunda har bir guruh soat yo'nalishi bo'ylab daftarlarini almashtiradi. O'qituvchi uy vazifasini (6-mashq) o'qiydi, o'quvchilar o'z sherigining vazifani qanday bajarganligini nazorat qiladi va ular bir-birlarining xatolari ustida ishlaydilar.

III. Yangi mavzuning bayoni.

1. Guruhlarda ishlash.O'qituvchi har bir guruhga tarqatmalardan bittadan tanlash imkonini beradi.Tarqatmalarda taxminan shunday savollar bo'lishi mumkin:

1.So'z turkumlari haqida ma'lumot bering.

2.Mustaqil so'z turkumlariga xos xususiyatlarni birma-bir sanang va har biriga misollar keltiring.

3.Yordamchi so'z turkumlariga tavsif bering va misollar bilan izohlang.

4.Mustaqil so'z turkumlari va yordamchi so'z turkumlarining bir-biridan farqini misollar asosida tushuntiring. Har ikkala so'z turkumlari qatnashgan beshta gapdan iborat kichik matn yarating va unda qatnashgan so'z turkumlarini izohlang.

5. Qaysi **mustaqil soʻz turkumlari** qanday gap boʻlagi vazifasida **kelishi** mumkin, uchta gap tuzing va ulardagi gap boʻlaklarini toping va izohlang?

2.Guruh ishining taqdimoti.Tayyor boʻlgan guruhlardan birin-ketin bir yoki undan ortiq oʻquvchi doskaga chiqib, berilgan tarqatmadagi savol va topshiriqlar yuzasidan taqdimot oʻtkazadi, boshqa guruh a'zolarida tushunmovchilik va savollar boʻlsa , ularga ham javob beradi.

3.“Aqliy hujum “ . Oʻqituvchi oʻquvchilarga quyidagi savol bilan murojat qiladi: Mustaqil soʻz turkumlarini sanab, ularga xos boʻlgan xususiyatlar haqida aytib bering.

Oʻquvchilarning javoblari ogʻzaki tarzda boʻlib, misollar doskaga yozib boriladi.

4.Jadval bilan ishlash. Guruhlarga «**Tushunchalar tahlili**» texnologiyasining materiallari tarqatiladi va jadvalni toʻldirish qoidasi oʻrgatiladi.

Jadval tuzilishi va uni toʻldirish namunasi koʻrsatiladi, oʻquvcilar shu asosda topshiriqni bajarishga kirishadilar.

№	Soʻz	Soʻz turkumlari haqida	Misol
1	Ot	Narsa,buyum nomi: Kim? nima? Kimlar?, nimalar?	Vatan, kitob
2	Sifat	Narsa- buyumning belgisi:Qanday?, qanaqa?,	Oq, mazali, qishki
3	Son	Narsalarning son-sanogʻi, tartibi: Nechta?, necha?,	Besh, oʻnta, birinchi
4	Olmosh	Ot, sifat, son oʻrnida almashinib qoʻllanuvchi soʻzlar: kim?, qancha?,	Men, shu, oʻz
5	Ravish	Harakat- holatning belgisi: qanday?,	Ertalab, olgʻa
6	Feʼl	Shaxs yoki narsalarning harakat holati: nima qilmoq?, nima boʻlmoq?	Oʻqimoq, oʻsmoq,tasvirlamoq,porlamoq

O'quvchilar tarqatilgan jadvalni ana shu tarzda guruh bilan birgalashib to'ldiradilar va to'ldirilgan jadvalni guruh a'zolaridan bittasi chiqib himoya qiladi. Har bir guruh o'z himoyasini tugatganidan so'ng, o'qituvchi kadaskop yordamida «Mustaqil so'z turkumlari» slaydini ekranga tushiradi. (Agar sharoit bo'lmasa, o'qituvchi oqqoqozga marker bilan yozgan ko'rgazmani namoyish etadi.) O'quvchilar o'zlarining bajargan ishlarini solishtirib, yutuqlari va kamchiliklarini belgilab oladilar.

I. Mustaqamlash. O'qituvchi o'quvchilar bilan yangi mavzu yuzasidan savol- javoblar asosida kichik suhbat o'tkazadi. So'ngra o'quvchilar 7-8-9-mashqlar ustida ishlaydilar, o'qituvchi daftarlarni tekshiradi.

O'quvchilarni baholash. O'quvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashdagi, guruhlardagi faolligi, yangi mavzuni mustahkamlash jarayonidagi mustaqil va erkin fikrlashlari kuzatiladi va baholanadi. o'quvchilar faolligini o'tgan darslarga solishtirib, og'zaki rag'batlantiriladi. Masalan: Ofarin! Siz oldingi darslardan ko'ra bugungi mashg'ulotda ajoyib qatnashdingiz. Men bugun sizning fikrlaringizni eshitib, xursand bo'dim ...kabi.

I. Uyga vazifa. o'quvchilarga uy vazifasining, ya'ni 11-mashqning bajarilishiga doir tushuntirishlar beriladi.

Darsning oldindan loyihalashtirilgan texnologik xaritasi:

Mavzu	Mustaqil soʻz turkumlari
Maqsad va vazifalar	Maqsad: oʻquvchilarga mustaqil soʻz turkumlari, ularning xususiyatlari, gapdagi oʻrni va bir-biridan farqini tushuntirish. Vazifalar: oʻquvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyqotish, ularda mavzu asosida bilim va koʻnikmalar shakllantirish va kengaytarish. Mavzuga oid tarqatma materiallar asosida oʻquvchilarning guruh holatida ishlashlari hamda suhbat-munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada oʻzlashtirilganligini naʼzorat qilish, oʻquvchilarning bilimlarini baholash
Oʻquv jarayonining mazmuni	Mustaqil soʻz turkumlariga kiruvchi soʻzlarning soʻroqlarga javob boʻlishi, ularning mazmun-mohiyatiga koʻra qaysi soʻz turkumiga kirishi belgilanadi va soʻz turkumlarining gapda biror vazifa bajarib, gap boʻlagi boʻlib kelishi oʻrgatiladi.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: Yozma bayon qilish, «Tushunchalar taqlili» texnologiyasi. Shakl: Suhbat, savol-javob, amaliy mashqulot, kichik guruhlarda ishlash. Vosita: Tarqatma materiallar. Tayyor yozma tarqatmalar, to'ldirilishi lozim bo'lgan blankalar. Na'zorat: Yozma na'zorat, savol-javob. Baholash: 5 ballik tizim asosida, rag'batlantirish.
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: Mavzuni qisqa vaqt ichida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. o'quvchilar faolligi oshib, darsga qiziqishi ortadi. Barcha o'quvchilar o'z bilimlarini namoya qilib, baholanadilar. Savol berish va berilgan savollarga javob berishni o'rganadilar. O'quvchi: Yangi bilimni egallaydi, guruh bo'lib ishlashga odatlanadi. Nutqi rivojlanib, o'z-o'zini na'zorat qilishni o'rganadi, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumot olib, baho oladi.

Kelgusi rejalar	O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni darslarga tatbiq etadi. O'z ustida mustaqil ishlaydi. Mavzuni hayotiy voqealar bilan boqlaydi. O'quvchi: guruhlar bilan ishlashni o'rganadi. O'z fikrini bayon qiladi. Guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini oshirib boradi.

Mustaqil so'z turkumlarini o'rganish yuzasidan test topshiriqlari

So'z turkumlarini o'rganish jarayonida unga doir test variantlari ustida ishlash katta samara beradi. o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari asosida test savollariga javob izlaydilar, qaytadan mavzularga murojaat qilish ehtiyoji tug'iladi. Natijada o'tilgan mavzular mustahkamlanadi. Quyida mustaqil so'z turkumlari yuzasidan test topshiriqlarini havola qilamiz:

1. Mustaqil so'z turkumlarini nechta?

a) 6 ta b) 4 ta c) 5 ta

2. Sifat darajalarini sanang

a) o'timli, o'timsiz; b) bo'lishli, bo'lishsiz; c) oddiy, qiyosiy, orttirma e) turdosh, atoqli.

2. Fe'l nisbatlari nechta?

a) 3 ta b) 4 ta s) 5 ta d) 6 ta

4. Son qanday so'roqlarga javob bo'ladi?

a) kim?nima? b)qanday?qay holda? s) necha?nechanchi?

d)qayerda?qachon?

3. Ravish qanday so'roqlarqajavob bo'ladi?

a) qachon?qay holda?qay tarzda? b) qanday?Qanaqa? s)qancha?necha?kim?

d)nima qildi?nimaqilyapti?

4. Fe'llarda nechta zamon bor?

a) 3 b)4 s) 5 d) 6

5. Yordamchi so'z turkumlari qaysilar?

a) fe'l,ravish b) taqlid va modal so'zlar s) bog'lovchi,ko'makchi,yuklama

d) undov,buyruq so'z.

6. Mashinasekin qo'zg'aldi.Ushbu gapdagi ravishni toping.

a) masinha b) sekin s) qo'zg'aldi

7. Qaysiqatorda mustaqil so'z turkumlariga to'g'ri tavsif berilgan?

a) so'zlarga qo'shilib,qo'shimcha ma'no beradi;

b)gapdagi so'zlarni bir-biriga bog'laydi;

d)alohida so'roqqa javob bo'lb,bog'lovchi vazifasini bajaradi.

8. Havo bulut,ammo yomg'ir yoki qor yog'mayapti.Ushbu gapdagi yordamchi so'z turkumlarini toping.

a) havo,yomg'ir ; b) ammo,yoki; s) bulut,qor; d) yog'mayapti

TESTKALITI.

Sav	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Jav	A	S	S	S	A	A	S	B	S	B

So'z turkumlariga doir grammatik topishmoqlar

So'z turkumlariga doir grammatik topishmoqlar o'quvchilarning morfologiya yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlaydi. So'z turkumlari bo'yicha bilimlarini mustaqil ravishda oshirishda ham mazkur grammatik topishmoqlar o'quvchilarga yaqindan yordam beradi. Shuning uchun o'qituvchi ona tili darslarida ulardan unumli hamda o'rinli foydalanishning uzluksizligini ta'minlashi va ona tili

bo'yicha bilimni mustaqil oshiruvchilarga mazkur topishmoqlar ustida davomli ishlarni tavsiya etishi maqsadga muvofiqdir.

Darsda morfologiyaga oid topishmoqlar dastlab o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi va javoblarni tez hamda aniq aytish talab etiladi. Keyingi darslarda topishmoqlarni o'quvchilarning o'zlariga galma-gal o'qitish va javoblarni "Kim tez va to'g'ri" usulida so'rash mumkin. Grammatik topishmoqlarni yodlab kelishlarini uyga vazifa sifatida berib, ularning javoblarini darsda hozirjavoblik asosida so'rash o'quvchilarning xotirasini yaxshilash bilan birga, topishmoqlarning javoblari ustida mushohada qilishga, izlanishga o'rgatadi. Topishmoqlarni yod aytishda ifodalilik, so'zlarni to'g'ri va aniq talaffuz qilish talab qilib borilsa, o'quvchilarning nutqi ham rivojlanadi, o'z nutqiga mas'uliyati ortadi. Topishmoq tarkibidagi gaplarning ifoda maqsadiga, tuzilishiga ko'ra turlari ham so'rab borilsa, o'quvchilarning sintaksisga doir bilimlari ham mustahkamlanadi, asosiysi, morfologiyani sintaksis asosida o'qitish maqsadi amalga oshadi.

Quyida mustaqil va yordamchi so'zlarga oid grammatik topishmoqlardan namunalarni misol tariqasida keltiramiz:

Ot so'z turkumiga doir topishmoqlar

1. Ikki tovush nomida,
Barcha nomlar nomida!
2. Mehnatsevarlik,
Bu – farovonlik.
Odam sevarlik,
Bu – baxtiyorlik.
Qanday so'z bular
O'ylab topaylik.
3. Moskov boradi Ahmad.
Toshkent borar Muhammad.
Moskov, Toshkent, Muhammad
Va Ahmad qanday so'zlar

4. Buyum, narsa nomlarin
Juda do'ndirib yasar.
Qoyil unga men, hatto
Jiyanimiz Muyassar,
Qanaqa qo'shimchalar,
Kim topar, misol aytar

5. Qo'llanar nutqimizda,
Olti xil kelishikda

Sifat so'z turkumiga doir topishmoqlar

1. Kuchliroq, qayroq, o'roq,
Bayroq, kattaroq, taroq.
Qiyosiy darajaning
Qoshimchasi qaysi -roq

2. Shirin so'z aytilsa, bemor bo'lar sog',
O'rinsiz so'z bilan ko'ngil bo'lar dog'.
Subhidam har qancha xushhol sayrasa,
Xushovoz bulbuldek bo'lolmaydi zog'.
Matnda qaysi so'zlar
Toping qanday sifatlar

3. Oddiy belgi, rang – tusni
Bildiradi ma'nosi.
Qaysi so'z turkumining
Bor shundayin ma'nosi

4. O'zi gaz rangsiz,
Mazasiz, hidsiz
Qanday sifatlar
O'ylang topasiz.

5. Qaynat so'zi -ma olar,
Bur so'zi ham -ma olar.
Qaynat, bur -ma ni olib,

Qanday so'z hosil qilar.

Son so'z turkumiga doir topishmoqlar

1. Narsalarning tartibi.
Sonini bildiradi.
Buyumlarning hajmini
Miqdorni bildiradi
2. Ikki bitun o'ndan besh,
Yettidan bir, o'ndan besh.
Qanday sonlardir bular,
Kim aniq o'ylab topar
3. Qaysi son oxirida
Qo'shilar qoshimcha -ta
Shunday sonlarga o'ylab,
Kim misol aytar to'rtta
4. Uchta daftar, yuz kitob,
Qanaqa son O'ylab top
5. Zo'r kishi birni yiqar,
Bilimdon mingni yiqar (maqol).
"Birni", "Mingni" so'zlari
Toping-chi, qanday so'zlar.

Olmosh so'z turkumiga doir topishmoqlar

1. Ot-u sifat sonlarga,
Ham otlashgan so'zlarga
Har doim o'rin bosar,
Otlar kabi turlanar
2. Nomin aytmay kishilarni bildirar,
Birlik, ko'plik har uch shaxsda qo'llanar
3. Kasb-u kori har narsani ko'rsatish,
Kishi diqqatini o'ziga tortish.
Yo'nalish-u, o'rin-qayt hamda chiqish

Kelishikda bir n harfin orttirish

4. Narsalarni aniqlar,
Ta'kidlar ham ko'rsatar
5. Ham kishilik olmoshi,
Ham ko'rsatish olmoshi.

Fe'l so'z turkumiga doir topishmoqlar

1. Ma'nosidan anglashilar harakat,
Harakatdan kelar sog'liq, barakat
2. Yoshlikda nihol o'tqaz,
Asra, voyaga yetkaz.
Daraxting kuchga to'lsin,
G'uj-g'uj meva bog'lasin,
Oftob hil-hil pishirsin,
Do'stlaring to'yib yesin.
Senga rahmatlar aytsin.
Bunda bor qanday fe'llar,
Qanday ma'no bildirar
3. Keksalarga odob bilan salom ber,
Ko'kragingga qo'ling qo'yib salom ber.
Mansab, kuching ko'kka yetgan bo'lsa ham,
Oddiylarga doimo bo'lgin hamdam.
Fe'llarni top, tuzilishini aytgin,
Yomon odatdan doimo qaytgin.
4. Dam olardi, ishlardi,
Yer edi, ishlar edi.
O'ylab toping-chi, endi,
Bunda bor necha "edi"
5. Hozir bo'lgan harakatni bildirar,
O'zak-negiziga -a, -y qo'shilar,
Shaxs-son qo'shimchalari ham qo'shilar.
Birlik, ko'plik har uch shaxsda tuslanar,

O'ylab toping, ular qanaqa so'zlar

Ravish so'z turkumiga doir topishmoqlar

1. Asta-sekin yuradi,
Ham yonma-yon turadi
Qaysi turkumdagi so'z,
Fe'ldan oldin yuradi
2. Zo'rg'a , sekin, ruschalab,
Qanday so'zdir top o'ylabq
3. Botirlarcha, kitobcha,
Uycha, qahramonlarcha.
To'rt so'zda bor to'rtta -cha,
Farqi bormi sizningcha
4. Fe'ldan anglashilgan ish - harakatning
Hol-u ahvolidan doim xabardor.
Qaysi so'z ekanin kim to'g'ri topsa,
O'sha bola ziyrak, dono va hushyor
5. Qachon, qachondan beri,
Qachongachaq so'rog'i.
Harakatning paytini
Bildirishdir odati.

Yordamchi so'z turkumiga doir topishmoqlar

1. Gapda mazmun tiklashda
So'zlarga ko'maklashar,
Nutqda o'rni kelganda,
Kelishik-la almashar
2. Har kimni, har narsani
Teng-tengi bilan bog'lar,
Ipsiz so'z bilan bog'lar,
Bog'lab dimog'in chog'lar
3. Qalam bilan yozamiz,

Men bilan sen yozamiz.
Bunda ikki "bilan" bor.
Bir-biridan farqi bor,
Toping qanday farqi bor

4. Echki aytadi -ma-a,
Buzoq aytadi -mo'-o'.
Toping -ma-a, -mo'-o' lar
Qaysi turdagi so'zlar
5. Uch o'g'a-yu inilar,
doimo yordamchilarq

O'zbek tilidan so'z turkumlari bo'yicha programmalashtirilgan topshiriqlar

O'zbek tilidan so'z turkumlari bo'yicha programmalashtirilgan topshiriqlar ustida ishlash ham o'quvchilarning morfologiya bo'limi, so'z turkumlari haqidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Ona tilidan programmalashtirilgan savol orqali o'quvchilar bilimini nazorat qilish maxsus o'quv- texnik vositalar, ya'ni tanlanma javobni savollar asosida o'quvchi bilimini sinaydigan mashinalar yordamida amalga oshiriladi.(Yoqubov L.M., Shoyqulov S.R. O'qitishning texnikaviy vositalari kursidan laboratoriya ishlari.T.: "O'qituvchi" 1984, 116- betiga qaralsin.) O'quvchilar o'z bilmini sinashdan oldin o'quv-texnik vositalardan foydalanish yo'llari va ularning xususiyatlari bilan to'la tanishgan bo'lishlari kerak.

Quyida so'z turkumlari bo'yicha programmalashtirilgan topshiriqlardan namunalar beramiz:

1. Mavhum otlar javoblarning qaysi birida berilgan?
- A. Bug'doy, arpa, makkajo'xori.
 - B. Traktor, kombayn, plug .
 - C. Yangilik, do'stlik, qahramonlik.
 - D. Parta, doska, stol, stul.
 - E. Ro'znoma, oynoma, kitob.

2. Shaxs oti yasovchi qo'shimchalar qaysi javobda qayd etilgan?
- A. -gich, (-kich, -qich, -g'ich), -gi (-ki, -qi, -g'i).
 - B. -shunos, -kash, -dor, -bon, -chi, -dosh, -boz, -paz, -soz .
 - C. -zor, -iston, -loq.
 - D. -lik, -liq.
 - E. -k, -ak, -ma.
3. Kichraytirish va erkalash otlari qaysi javobda berilgan?
- A. Archa, chiroq, konfet, qo'ng'iroq.
 - B. Erkin, Ahmad, Oynisa.
 - C. Yulduzcha, qozichoq, kelinchak, bo'taloq.
 - D. Daryo, buloq, qalam .
 - E. Dala, tegirmon, g'alla.
4. Qo'shma sifatlar qaysi javobda berilgan?
- A. Kuchli, tuzsiz, ilmiy, bahorgi.
 - B. Ishchan, serhosil, baquvvat.
 - C. Maqtanchoq, qaynatma, qochoq.
 - D. Sabrsiz, iliq, odamsimon.
 - E. Odamsimon, qimmatbaho, tezoqar, xalqaro.
5. Javoblarning qaysi birida otlashgan sifatlar qo'llangan?
- A. Mard odamni maydonda sina.
 - B. To'g'ri gap hammaga ham yoqavermaydi.
 - C. Qiziqarli kitob oldim.
 - D. Yaxshi odam yaxshi gapiradi.
 - E. Mardni maydonda sina. To'g'ri o'zadi, yaxshilar ko'paysin.
6. Fe'ldan yasalgan sifatlar qaysi javobda berilgan?
- A. Kuchli, bilimli, aybsiz, yozgi.
 - B. Oilaviy, baquvvat, sergap.
 - C. Oilaviy, ilmiy, g'oyaviy.
 - D. Quvnoq, sayroqi, titroq, chopqir, maqtanchoq, saylanma (asar).
 - E. Toshkent viloyati, kumushsimon, sharsimon.
7. Sifat bilan hosil qilingan birikmalar qaysi javobda hosil qilingan?
- A. Temir darvoza, oltin soat.
 - B. Yangi mavzu, toza ko'ylak, sho'x bola.
 - C. Yuvilgan kiyim, maktab bog'i.
 - D. Yo'lga tushdi, to'rt qavat.
 - E. Umumta'lim maktabi, o'n besh kun.
8. Butun sonlar qaysi javobda qo'llanilgan?
- A. Ikkita uchtdan.

- B. Bir ikki, besh, o'n, ikki.
- C. Beshov, oltitacha.
- D. Bir yarim, nol butun o'ndan besh.
- E. Yarim, nim chorak, chorak.

9. Aralash sonlar qaysi javobda qayd etilgan?

- A. O'n besh, o'ttiz, million.
- B. Nimchorak, beshtadan.
- C. Bir yarim, bir butun to'rtidan bir.
- D. Besh-olti bola.
- E. O'ntacha qalam.

10. Qaysi javobda otlashgan sonlar ishtirok etgan gaplar berilgan?

- A. O'nta daftarim bor.
- B. Birni birov bersa, mingni mehnat beradi.
- C. Uchovimiz ishga bordik.
- D. Yig'ilishga sakson o'quvchi qatnashdi.
- E. Yuz gektar yerga chigit ekdik.

11. Kishilik va o'zlik olmoshlari qaysi javobda keltirilgan?

- A. Qanday? Qanaqa? Qaysi?
- B. Men, sen, u, biz, siz, ular, o'z.
- C. Barcha, hamma, bari.
- D. Allakim, kimdir.
- E. O'sha, mana, bu, ana, shu.

12. Olmoshning ta'rifi qaysi javobda berilgan?

- A. Biror narsaning nomini bildirib, kim? Nima? So'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar turkumi.
- B. Belgini bildirib, qanday? Qanaqa? So'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar turkumi.
- C. Sonning nomini, narsaning son-sanog'ini, tartibini bildiradigan so'zlar turkumi.
- D. Ot, sifat, son o'rnida qo'llanadigan so'zlar turkumi.
- E. ish-harakat, holatni bildirib, nima qiladi? Nima qilyapti? Nima qilar? So'roqlariga javob bo'ldigan so'zlar.

13. Bo'lishsizlik gumon olmoshlari qaysi javobda o'z aksini topgan?

- A. Hech kim, hech qanaqa, birov, kimdir, allakim.
- B. U, bu, shu, o'sha, ana shu, mana bu.
- C. Kim? Nima? Qancha? Nega?
- D. Hamma, barcha, bari.
- E. har kim, har nima, o'z.

14. Fe'ning orttirma nisbati qaysi javobda tushuntirilgan?

- A. Ish-harakatning boshqa narsaga o'tmay, bajaruvchining o'zida qolganligini anglatuvchi fe'llar.
- B. Ish-harakatning bildiruvchisini aniq bildirmaydigan fe'llar.
- C. Ish-harakatning boshqa biror shaxs yoki narsa tomonidan birgalikda bajarilganligini bildiruvchi fe'llar.
- D. Ish-harakatning boshqa biror shaxs yoki narsa vositasida bajarilganligini bildiruvchi fe'llar.
- E. Fe'l nisbati qo'shimchalari bo'lmagan fe'llar.

15. O'tgan zamon fe'llari qaysi javobda qayd etilgan?

- A. O'qidi, borganman, kelar edi, qaytibdi, yozibdi.
- B. O'qiyotir, boryapti, gapirmoqda.
- C. O'qiyman, boraman, aylanadi.
- D. O'qirman, o'qimoqchi.
- E. Borar, o'qimas.

16. Fe'lning shart mayli javoblarning qaysi birida berilgan?

- A. O'qidim, yozgan edim, yozarman.
- B. O'qisam, yozgan bo'lsa, kelsangiz.
- C. O'qiyin, o'qiylik, yozgin, yozsin.
- D. Borgan edim kelibdi.
- E. Tingla, o'qi, egalla.

17. Ravishlar qaysi javobda keltirilgan?

- A. Olma, anoq, behi.
- B. Chiroyli, go'zal, ko'rkam.
- C. Asta, bugun, uzoqda, ko'p, yangicha, do'stona.
- D. Allakim, kim, hech kim, barcha.
- E. Yarim, chorak, o'ntacha, minglab.

18. Holat ravishlari qaysi javobda berilgan?

- A. Erta, ilgari, hali, har kuni, hozir.
- B. Asta, jim, majburan, asotydil, yayov.
- C. Bu yerda, quyida, bu yoqqa, uzoqdan.
- D. Picha, ko'p, o'z, talay, mo'l, ancha.
- E. Noiloj, ataylab.

19. Qaysi javobda qo'shma ravishlar qo'llangan?

- A. Qisqacha, o'rtacha, yangichasiga.
- B. Haligacha, arslondek, ko'rganday.
- C. Ertalab, yaxshilab, do'stona.
- D. Umuman, butunlay, ko'pgina.
- E. Har dam, shu yerga, hech, qachon, allaqayerda, qayvaqt.

20. Qaysi javobda ravishdoshning ta' rifi berilgan?

- A. Biror narsaga o'tadigan ish-harakatni bildirib, odatda kimni? Nimani? So'rog'iga javob bo'luvchiso'zni talab etadigan fe'l shakli.
- B. Ish-harakat bilan uning bajaruvchisi o'rtasidagi munasabatni ifodalovchi fe'l shakli.
- C. Ish-harakatning belgisini, uning maqsadini, paytini bildiradigan fe'l shakli.
- D. So'zlovchining ish-harakatga munosabatini ifodalovchi fe'l shakli.
- E. Biror narsaning belgisini, bo'lgan ish-harakatni anglatadigan fe'l shakli.

21. Qaysi javobda sof ko'makchilar berilgan?

- A. Burun, ilgari, keyin.
- B. Uchun, kabi, singari, sari, sayin.
- C. Ko'ra, qarab, qaraganda.
- D. To'g'risida, haqida.
- E. Ostida, yonida, ustida.

22. Qaysi javobda (gapda) -u, -yu yuklamasi zidlov bog'lovchi o'rnida qo'llanilgan?

- A. Qor yog'di-yu, yer muzlamadi.
- B. Bola juda yosh-u!
- C. U ajoyib o'quvchi ekan-da!
- D. Sen-ku ishni bajarmading-a!
- E. Salima keldi-ku!

Xulosa

Yuqorida keltirilgan fikrlar va kuzatishlardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkin:

1. O'quvchilarda so'z turkumlari, ularni bir- biridan ajratib turuvchi o'ziga xos xususiyatlar haqida bilim , ko'nikma malakalarni shakllantirishning asosiy omili morfologiyani sintaksis asosida o'rganishdir.
2. Chunki mustaqil so'z turkumlarining mazmun- mohiyati uning ma'lum bir so'roqqa javob bo'lishi va gapda biror vazifa bajarib, gap bo'lagi bo'lib kelishida namoyon bo'ladi.
3. Morfologiya bo'yicha o'quvchilarning bilim darajasi ham so'z turkumlarini to'g'ri tahlil qilishda, ularning o'zaro grammatik munosabatga kirishuvini to'g'ri belgilashda ko'rinadi.
4. So' birikmalari va gaplar asosida o'quvchilar so'z turkumlariga xos bo'lgan nazariy umumlashgan qoidalarni (masalan, ma'no anglatuvchi, ma'lum bir so'roqqa javob bo'luvchi, gapda muayyan vazifani bajaruvchi so'zlarning hammasi mustaqil so'zlardir, mustaqil so'zlar turlarining esa o'ziga xos xususiyati mavjud) farqlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. So'z turkumlaridagi otlashish hodisasi ham aynan matnda ko'rinadi, matndan

tashqarida mazkur hodisa kuzatilmaydi. Shuning uchun ham so'z turkumlari sintaksisga bog'lab o'rganiladi.

5. Maktab ona tili kursining turli bo'limlari orasidagi o'zaro bog'lanishni aniq bilish va hisobga olish o'qituvchiga o'tilganlarni har bir bo'limning o'z xususiyatlarini hisobga olgan holda yana ham samarali, uzluksiz takrorlash va mustahkamlashni tashkil qilishga imkon beradi. Masalan, o'qituvchi mustaqil so'zlarni o'rgatish jarayonida bunday so'zlarning sintaktik vazifalari haqidagi ma'lumotlarni, sintaksisni o'rgatishda esa so'z turkumlari haqidagi ma'lumotlarni takrorlash imkoniyatiga ega bo'ladi.
6. Ona tili fani ichidagi bog'lanish ikki xil ko'rinishga ega: 1. Yuqoridan pastga qarab bog'lanish. Bog'lanishning bu ko'rinishi o'tilayotgan yangi o'quv materialini oldin o'rganilgan material bilan bog'lashni talab qiladi. 2. Pastdan yuqoriga qarab bog'lanish. Bunda o'qituvchi o'rganilayotgan materialni keyinchalik o'rganiladigan material bilan bog'laydi. Masalan, morfologiyani o'tayotganda o'quvchilarga sintaktik ma'lumotlar berish pastdan yuqoriga qarab bog'lanish bo'lib sanaladi (biz ishimizda mana shu holatni kengroq yoritishga harakat qildik).
7. Ona tili o'qituvchisi mavzular aro, bo'limlar aro va sinflar aro bog'lanishni to'g'ri uyushtirish natijasidagina bu fanni o'qitish oldiga qoyilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishi mumkin.

Har tomonlama yetuk insonni tarbiyalash bugungi jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi maktab o'rindiqlarida o'tirgan yosh avlod ertaga bizning qo'limizdan ishimizni oladigan, hayotimizni va faoliyatimizni davom ettirib, o'zidan keyingi avlodlarga ma'naviy- madaniy merosimizni yetkazuvchi vorislarimiz, O'zbekiston kelajagining egalaridir.

Shu sababli butun diqqat- e'tibor yosh avlod tarbiyasiga qaratilmoqda. Hozirgi kunda maktabda ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning mustaqil tafakkurini rivojlantirish, mantiqiy- lingvistik ishlarni bajara olish malakalarini takomillashtirish masalasi ona tili darslari jarayonida eng samarali usullarni oldindan loyihalashtirish asosida qo'llash ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.

O'quvchilarni til hodisalarini mustaqil holda tahlil qilishga, xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqazishlariga o'rgatish shaxsni rivojlanishi, bilim darajasining oshishiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Interfaol dars jarayonida sinfdagi barcha o'quvchilar faollashadi, dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi, so'ngra sinfda har tomonlama muhokama etiladi

Morfologiyani sintaksis asosida o'qitishda interfaol mashg'ulotni, ya'ni o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot, hamkorlikda kechadigan jarayonni tashkil qilish kerak. Chunki interfaol metodlarning qo'llanishi darslarni beixtiyor psixologik o'yin yoki musobaqaga aylantirib, bo'sh o'quvchilarni ham biroz bo'lsa-da, o'z fikrlarini bayon etishga, umuman, sinfda kechayotgan bahs-munozaralarga befarq bo'lmasdan, faol ishtirok etishga undaydi. O'quvchilarni faollashtirish uchun dars jarayonida qo'llaniladigan usullarni to'g'ri tanlash va savollarni aniq tuzish katta samara beradi. Buning uchun darsga, mavzuga qo'yilgan maqsad aniq belgilanib, shu maqsadga erishish yo'li, usuli puxta ko'rib chiqilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

I

1. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1998.
2. Karimov I.A. "Ta'lim tizimini rivojlantirish" mavzusidagi nutqidan. T., 2007.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., 2008.

II

1. Tursunov U., Muhtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1992.
2. Roziqov O. v.b. Ona tili didaktikasi. T.: "Yangi asr avlodi", 2005.

3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2005.
4. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. II jild, T.: "Akademnashr", 2012.
5. Nurmonov A. O'bek tilining dolzarb muammolari. Andijon -2012.
6. Shahobiddinova Sh. H. O'zbek tili morfologiyasi. Andijon -2012.

III

1. Shukrullayev N. Ona tili darslarida taqqoslash usulidan foydalanish. T., 1979.
2. G'oziyev E. O'quvchilarni umumlashtirish usullariga o'rgatish va ularning aqliy taraqqiyoti. T., 1983.
3. Nazarova S. O'zbek tili o'qitish metodikasi. T., 1992.
4. G'ulomov A. Ona tili o'qitish metodlariva prinsiplari. T. 1992.
5. 7. G'ulomov A. Ona tili ta'limi mazmuni. T., 1995.
6. G'ulomov Yo va boshq. O'zbek tili o'qitish metodikasi. T., 1995.
7. G'ulomov A. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. T., 1998..
10. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. T., 2006.
11. To'xliyev B., Shamsieva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. T., 2006.
12. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. T., 2008.

IV

Internet saytlari: www.ziynet.uz, www.pedagog.uz